

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

SINXRON TARJIMA MASALALARI

fanidan

MA'RUZA MATNLARI

Tuzuvchi: Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

o'qituvchisi Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna

TOSHKENT – 2013

1-MA'RUZA

“Sinxron tarjima masalalari” fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Sinxron tarjima haqida umumiy tushuncha.

Rivojlangan mamlakatlar qatorida ona tilimizning ham xalqaro tillar safiga qo'shishga katta umid bog'lab, boshqa chet tillardan o'z ona o'zbek tilimizga va aksincha o'zbek tilidan chet tiliga bevosita, ya'ni hech bir o'zga til vosichaligisiz tarjima qilish faoliyati jadal suratlar bilan taraqqiy topmoqda. Xususan, uzoq davrlardan buyon mamlakatimizda asosan yozma tarjima sohasi keng ish olib borar edi. Lekin so'nggi yillarda davr talabi bilan og'zaki tarjimaning, jumladan aynan sinxron tarjimaning salmog'i ortib bormoqda. “Sinxron tarjima masalalari” fanining **maqsadi** ham talabada o'zbek tilidan chet tiliga, chet tilidan o'zbek tiliga tezkor, bexato, adekvat, mantiqiy tarjima qila olish mahoratini shakllantirishdir. Bu yo'lda fanning **vazifalari**, avvalo og'zaki tarjimonlik qobiliyati yuqori bo'lgan talabalarni sinxron tarjima faoliyati, uning prinsiplari, strategiyalari, nazariy konsepsiyalari bilan tanishtirish, amaliy ko'rsatmalar berishdan iborat. Fanning **predmeti** sinxron tarjima va u bilan bog'liq nazariy, amaliy masalalarda o'z ifodasini topadi.

Avvalambor fanning predmeti bo'lmish “sinxron tarjima” tushunchasiga kelsak, **sinxron tarjima** – bu og'zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi bo'lib, mazkur turdagi tarjimada maxsus jihozdan foydalanib tarjima amalga oshiriladi. Bu notiq nutq so'zlayotgan chog'ida tarjimonning uni bo'lmasdan uzluksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning og'zaki tarjima usulidir.

Sinxron tarjima sistemasi.

Maxsus uskuna-jihoz sinxron tarjimaning sistemasi bo'lib u odatda stasionar yoki yig'ma kabina ko'rinishida bo'lib, bu yerda ikki juft quloqliklar va tarjimon uchun mikrofon, yana shuningdek tarjimaga ehtiyoji bor ishtirokchilarning soniga qarab quloqliklar to'plami yoki ko'chma priyomniklardan tashkil topadi.

Konferensiya o'tkazilayotgan chog'ida sinxron tarjimonlar alohida kichik bir xonada o'z ovozlari notiqni ovozini bosib qolmasligi uchun tovushlarni izolyatsiyalovchi quloqliklarni taqib o'tiradilar. Ovozni kuchaytiruvchi apparat yordamida tarjima tinglovchilar quloqliklariga yetkaziladi. Texnologiyadan foydalanilgan sinxron tarjima odatga ko'ra katta miqdordagi odamlar ishtirokidagi va katta konferens-zal yoki auditoriyada o'tkaziladigan tadbirlar, ya'ni konferensiya, seminar, prezentatsiya kabilarda uyushtiriladi.

BMTning rasmiy foydalanadigan tillari oltita bo'lib, ular arab tili, xitoy tili, ingliz tili, fransuz tili, rus tili va ispan tilidir. BMTning kongress zali va har bir konferens-zallarida sinxron tarjima sistemasi o'rnatilgan. Har bir til uchun bittadan ish kabinasi mavjud. Oltita til uchun jami alohida olti nafar kabina bo'lib, har bir kabinada odatda uchta tarjimon o'tiradi.

Sinxron tarjimaning afzalliklari.

Sinxron tarjimaning izchil tarjima usulidan farqli quyidagi afzalliklar mavjud:

- Notiqning nutqi uzilishlarsiz amalga oshiriladi. Bu esa o'z o'rnida notiqning auditoriya diqqatini ushlab turishiga, tinglovchilarning reaksiyasi va kayfiyatini seza olish imkoniyatini beradi.
- Tadbirni o'tkazish vaqti izchil tarjimadan foydalanishga nisbatan deyarli ikki baravar qisqaradi.
- Ishtirokchilar uchun qulaylik tomoni, hozirgi paytda chet tilini o'rganish kamyob bo'lmay, ko'pgina ishtirokchilar doklidlarni chet tilida asl holida tinglashni afzal biladilar. Izchil tarjimada notiqning to'xtab qolib tarjima bilan davom etishi bunday ishtirokchilarning asabiga tegadi.

Sinxron tarjimaning kamchiliklari.

O'z o'rnida sinxron tarjimaning ham bir oz kamchiliklari bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Sinxron tarjimaning bahosi ketma-ket tarjimaga nisbatan ancha baland bo'lib, bu narhga sinxron tarjimonlar xizmati to'lovi va maxsus jihozning ijara to'lovi kiradi.
- Tadbirning tematikasini bir xilda yaxshi biluvchi minimum 2-3 nafar sinxron tarjimonlarni jalb etish kerak bo'ladi.
- Sinxron tarjimada yuqori darajada ma'lumotni yo'qotish va oz darajada ma'lumotning tinglovchiga yetib borishi kuzatiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjima nima?
2. "Sinxron tarjima masalalari" fanining predmeti nima?
3. "Sinxron tarjima masalalari" fanining maqsadi nima?
4. "Sinxron tarjima masalalari" fanining vazifalari nimalardan iborat?
5. Sinxron tarjima sistemasi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?
6. Sinxron tarjimaning afzallik va kamchiliklari nimada?

2-MA'RUZA

Sinxron tarjimaning rivojlanish tarixi. Sinxron tarjimadan foydalanish ko'lamining kengayishi va uning nazariy asoslari.

Sinxron tarjima tadqiqoti amaliy tilshunoslikdagi boshqa tadqiqotlardan ayro holda olib borilgan. Buning sababi ko'pgina tillarning va turli vaziyatlarning mavjudligidan kelib chiqqan metodologik muammolar hisoblanadi. Bundan tashqari bu tillarni o'rgatishning va og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lishning yangi metodlariga muxtoj amaliy tilshunoslikning yirik bozori bilan solishtirganda oz miqdordagi foydalanuvchilar uchun zarur tadqiqotlar natijalarining amaliy qo'llanilishi bilan ta'minlangan. Tarjima faoliyati bo'yicha dastlabki atroflicha o'rganilgan ishlar mazkur sohadagi mutaxassislarni tayyorlash uchun nazariy poydevor yaratishga uringan professional tarjimonlar qalami ostida yaratilgan. Lekin sinxron tarjima tahlilini amalga oshirishga ilk urinishlardan so'ng ellik

yillardan oshgan bo'lsada, ilmiy doiralar mazkur jarayonning qay bir tadqiqot paradigmasi munosibroqligiga aloqador konsensusdan ancha olisda. Sinxron tarjimaning noyob sifatlari tufayli uni tadqiq etishdek murakkab vazifa bilan to'qnash kelgan amaliyotchi olimlar ko'plab turli nazariy fikrlarni berishga majbur bo'lganlar. Birinchidan, dastlabki ishlarda sinxron tarjimani mavjud modellarga nisbatan qo'llashga urg'u berilgan. Ayniqsa tarjima bilan ishni qo'shimcha murakkablashtirishda tinglash va gapirish jarayonini muvaffaqiyatli sinxronlashtirish imkoniyati ko'rilgan. Ikkinchidan, tillar o'rtasidagi semantic va struktur tafovutlarni juda yaxshi bulivchi tilshunos va tarjimonlar muhitida diskursning bir lahzali, aniq tarjimasining imkoniyligi ta'kidlangan. Bir vaqtning o'zida sinxron tarjima og'zaki nutqqa hos, uni yozma nutqdan ajratib turuvchi hamda lingvistik tadqiqotga muxtoj tafovutlarni ochib berdi. Sinxron tarjima tadqiqoti an'anaviy ikki yo'nalishdan ketgan. Tarjima amaliyotchilari va o'qituvchilari asos sifatida parij maktabi tarjimaning interpretasion nazariyasiga aylangan me'yoriy ijtimoiy-pragmatik yondashuvni olgan.

2-Jahon Urushi yakunlangach 1946 yili Germaniyada uyushtirilgan Nyurnberg xalqaro Xarbiy Sud fashistlarning jinoyatini sudlash jarayonida ilk marotaba sinxron tarjimadan foydalanilgan. Bu butun dunyoda birinchi marta katta ko'lamdagi xalqaro tadbirda sinxron tarjimani qo'llash hisoblanadi.

Ikkinchi Jahon urushidan so'ng ko'plab xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi omilkor til vositachiligiga nisbatan kutilmagan talabning yuzaga kelishiga olib keldi. Ayrim mualliflarning fikricha, sinxron tarjimani qo'llash haqidagi fikrning ilk marotaba bildirilganida tanqidchilar uning maqbulligiga shubha nazari bilan qaradilar. Lekin sinxron tarjima imkoniyatlarining namoyishidan so'ng darhol sinxron tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi. Birinchi amaliyotchilarga esa professional va akademik mezonlarni o'rnatishlariga to'g'ri keldi. Ilk bosqichda chop etilgan alohida qo'llanmalar hozirga qadar klassik namuna bo'lib qoladi (Rozan 1956, Herbert 1965). Ammo tarjimonlarning o'zlari

va sinxron tarjimadan foydalanishni davom etganlardan tashqari ko'pchilik sinxron tarjima qilishning imkoniyligiga ishonchsizlik bilan qaraydilar. D.Seleskovich va sinxron tarjimaning boshqa pionerlari o'sha paytda ustun turgan nutq madaniyatining tili va nazariyasidagi strikturalizm va bixeviorizm nazariyalarining sinxron tarjimaga nisbatan xatar deb ko'rdilar. Ular nafaqat yaxshi tarjimaning imkoniyligi, balki uning maqbul qo'llanilishi tilni tushunish tabiati yangi olamini to'ldirganini isbotladilar. Mazkur tarjimaning interpretativ nazariyasi bilan shug'ullanuvchi hamfikir nazariyotchilar guruhi o'zlarining tajriba va kuzatuvlariga asoslanib tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha nazariy asos va prinsiplar ishlab chiqdilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjima nechanchi yili va qayerda ilk bora qo'llanilgan?
2. Sinxron tarjimaga dunyo tarjimashunos olimlarining bildirgan fikrlari.
3. Sinxron tarjima masalalariga bag'ishlangan ilk klassik namunalar kimlar tomonidan yaratilgan?

3-MA'RUZA

Sinxron tarjima turlari. Sinxron tarjimaning o'ziga hos hususiyatlari, unga qo'yiladigan talablar.

Sinxron tarjimaning turlari.

Amaliyotda sinxron tarjimaning uch turi (varianti) kuzatiladi:

1. Yodaki (eshitib) sinxron tarjima. Bunda tarjimon quloqliklar orqali notiqning uzluksiz nutqini qabul qilib, ma'lumotni tushishiga qarab tarjimani bloklab amalga oshiradi. Bu eng keng tarqalgan va eng murakkab xolatdir.
2. Oldindan tayyorgarlik ko'rib yoki tayyorlanmasdan matnga qarab sinxron tarjima. Sinxron tarjimon oldindan notiqning yozma nutq matnini oladi va keltirilgan materiallarga muvofiq tarjimani amalga oshiradi.

3. Oldindan tarjima qilingan matnni sinxron o'qish. Sinxron tarjimon notiqning nutqi ketidan avvaldan tayyorlab qo'yilgan matnni o'qib boradi. Joiz o'rinlarda agar notiq nutqi chog'ida dastlabki matndan chetlashsa, kerakli tuzatishlar kiritadi.

Sinxron tarjimaning hususiyatlari.

Sinxron tarjima tarjima usulining bir turi sifatida uning eng katta o'ziga xos xususiyati yuqori samaralilikdan iborat bo'lib, asl matn nutqi va tarjima nutqi o'rtasida oraliq vaqt o'rtacha 3-4 soniyani tashkil etadi. Eng ko'pi bilan esa 10 soniyagacha yetadi. Shuning uchun notiqning beto'xtov nutq so'zlashi kafolatlanib, notiqning fikr-mulohazasiga chetdan hech qanday ta'sir bo'lmaydi va nutqidan to'xtamaydi. Bu esa tinglovchilarning nutqni butunligicha tushunib yetishlariga imkon beradi. Shu sababli sinxron tarjima hozirda dunyoda odatiy udumga kirgan tarjima usuliga aylanib bo'lgan. Bugungi kunda dunyoda 95% xalqaro yig'ilish, konferensiyalarda sinxron tarjimadan foydalaniladi. Shuning bilan birga sinxron tarjima juda katta ilmiylik va mutaxassislik xususiyatiga ega va u odatda rasmiy xalqaro konferensiyalarda foydalanilganligi sababli sinxron tarjimaga nihoyatda yuqori talablar qo'yiladi.

Sinxron tarjima talablari.

Sinxron tarjima tarjimondan uning asl tilda nutq so'zlanayotgan chog'ida tinglab farqlashi bilan birgalikda tematik bilimlariga tayangan holda qisqa vaqt ichida tezkorlik bilan asl tildagi ma'lumotni bashorat qilishi, tushunib anglashi, xotirada saqlab qolib uni yo'naltirishi talab etiladi. Shuning bilan birga turli xalqaro konferensiya, yig'ilishlarda sinxron tarjimondan "chaqmoqday tafakkur" qilish qobiliyati hamda yuqori nutq mahoratiga ega bo'lishi kerak bo'ladi. IAIC (Xalqaro sinxron tarjimonlar assotsiatsiyasi) qaroriga muvofiq, sinxron tarjimon ishtirokchi-notiqning mazmunini faqatgina 80%ini tarjima qila olsa muvaffaqiyatga erishgan hisoblanadi (90%-100% li sinxron tarjimini amalga oshirib bo'lmaydi). Ko'plab kishilarning odatda so'zlash tezligi juda tez bo'lib,

ular nutq so'zlayotgan paytlarida ham doim o'zlarining nutq matni mazmuni haqida qayg'uradilar. Ustiga ustak turli mahalliy sheva aksentlarida so'zlab murakkablashtiradilar. Mazkur xolatlarda sinxron tarjimon o'zining bor bilim xazinasini harakatga keltirish va tajribasidan kelib chiqqan xolda bor kuchi bilan ish yuritishga majbur bo'ladi. Atayin sekin suratda so'zlab sinxron tarjimon haqida qayg'ura oladigan notiqalar unchalik ko'p emas. Bu esa mutaxassisning tabiatiga nihoyatda yuqori talablar qo'yadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimaning qanday turlari mavjud?
2. Sinxron tarjimaning turlari o'zaro qaysi juhatlari bilan farqlanadi? Ularning qay biri murakkabroq?
3. Sinxron tarjima muvaffaqiyatli amalga oshgan bo'lishi uchun necha foizlik tarjima qilinishi darkor?
4. Sinxron tarjima jarayonida aslyat matni nutqi va tarjima nutqi orasidagi vaqt qancha bo'lishi kerak?

4-MA'RUZA

Tarjima kompetensiyasida konferensiya tarjimoni ega bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar. Sinxron tarjimoni baholash mezonlari.

Tarjimonlik kompetensiyasida konferensiya tarjimoni 3 ta sifatga ega bo'lishi kerak:

a) Lingvistik, lisoniy kompetensiya. Bu pragmatik kompetensiyani o'z ichiga oladi. Pragmatik kompetensiya esa o'z o'rnida 2 ga bo'linadi:

- 1) pragmalingvistik kompetensiya - bu R.Settonning fikriga ko'ra, muayyan bir so'z yoki iboralarning «ma'nosining xususiy ottenkalari»ni bilish demak.
- 2) sotsiopragmatik kompetensiya – bu o'z ichiga etiket, funksional uslub va x.k.larni bilish kabi keng tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

b) Sinxronistning umumiy va maxsus lug'atini qura oluvchi yetarlicha asos beruvchi umumiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu oldindan berilgan xujjat va ma'ruzalarning berilishi sharoitida konkret tematika yuzasidan tushunchaga ega bo'lish va tarjima qilish uchun zarur.

c) Sinxron tarjimonning xabarga ishlov berish ko'nikmasi, yoki strategiyalari, yoki qobiliyatlariga ega bo'lish.

Sinxron tarjima faoliyati og'zaki tarjima ishining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Shuning uchun sinxron tarjimonlarning tayyorgarligiga juda baland talablar qo'yiladi. Ular quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi:

1. Chet tili va o'z ona tilida erkin gapira olish;
2. Grammatik va fonetik jihatdan yaxshi talaffuzli nutq;
3. Ikki tilda ham chuqur so'z boyligi;
4. Turg'un konstruksiya va klishelar fondini yaxshi bilish va ularni tezkorlik bilan topa olish;
5. Ona tiliga ham, chet tiliga ham grammatik jihatdan to'g'ri tarjima qila olish;
6. Reaksiyaning tezligi;
7. Yaxshi operativ xotira;
8. Diqqatni jamlay olish;
9. Aqliy va jismoniy chidamlilik;
10. Guruh bo'lib ishlay olish;
11. Ensiklopedik bilimlarga ega bo'lish kabilar sinxron tarjimondan talab etiladi.

Sinxron tarjima faoliyatining shiori "faqat muvaffaqiyat, xatolikka esa yo'l yo'q" bo'lib, konferensiyal chog'ida yo'l qo'yiladigan xato, anglashmovchiliklarni nazorat qiladigan bir tashkilot mavjud emas. Odatda konferensiya yakunlangach, tashkillashtiruvchi tashkilot, majlis raisi, ekspertlar, delegasiyalarning bari sinxron tarjimon ishiga minnatdorchilik bildiradilar. Agarda tarjimonning ishi juda soz bajarilgan bo'lsa, ular olqishlab maqtov yog'diradilar, ayrimlari esa kelasi safar

ham ular bilan hamkorlik qilishga taklif etadilar. Agar sinxron tarjima o'ta nochor olib borilgan bo'lsa, konferensiya zalida shu onda turli reaksiyalar, ya'ni tinglovchilarning oyoq deysinishlari, yo'talishlari, so'zlab o'tirishlari kabi o'ng'aysiz xolatlarni kuzatish mumkin bo'ladi.

Sinxron tarjima jarayonida kichik-kichik unsurlarni ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Tarjima kabinkasidagi mikrofon o'ta ta'sirchan bo'lganligi sababli kabinkadagi harakatlar tovushi juda ohista bo'lishi darkor. Hatto kitobni sahifalash, ayol tarjimonning taqib olgan katta sirg'alarining sekin tovushi ham tinglovchilarning qu'log'iga katta shovqin bo'lib boradi.

Jahonda sinxron tarjimonlarni akkreditatsiyadan o'tkazuvchi bir qator xalqaro tashkilotlar mavjud. Shulardan Xalqaro Sinxron Tarjimonlar Assosiasiyasi (International Association of Consultant Interpreters – IACI) 1953 yili tashkil topgan bo'lib, IACIning a'zolari mavqei konferensiya tarjimonlarining eng yuqori professional sifatida keng tan olingan. IACIga a'zo bo'lish uchun hech qanday imtihonning zarurati yo'q. Buning uchun to'liq bir ish kunlik konferensiyalarda og'zaki tarjimon sifatida ikki yillik stajga ega bo'lishi, tarjima mutaxassisligi bo'yicha oliy o'quv yurtining magistrlik diplomiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari kafolatlash uchun 5 yildan ortiq yuqori malakaga ega 3 tadan ziyod a'zo tarjimon zarur bo'ladi. Kafolatlovchi shaxs a'zolikka talabgor tarjimon bilan bir guruhda ishlagan bo'lishi kerak.

Yevropa Ittifoqi Tarjimonlik va Konferensiya Xizmati (European Commission Joint Interpreting and Conference Service - JICS) Belgiyaning poytaxti Bryusselda tashkil etilgan. Tarjimonlarni tanlov tartibi quyidagicha: avval har bir viloyatdan eng yaxshilari tanlanib tavsiya etiladi, bu tanlovda ishtirok etuvchi og'zaki tarjimonlar 25 dan 30 yoshgacha bo'lishi, 3 yillik ish tajribasi hamda ingliz tili mutaxassisligi bakalavrdan yuqori ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi. Dastlabki sinov, imtihonning ikkinchi turi va suhbatdan o'tishi kerak bo'ladi.

Aslini olganda, dunyoda eng yirik og'zaki tarjimonlar komandasi BMTda emas, balki Yevropa Ittifoqi Qo'mitasidadir. Qo'mitaning og'zaki tarjimonlar bosh idorasining yollagan sinxron tarjimonlari soni 500 taga yaqin. Yevropa Ittifoqining Qo'mitasi ayniqsa tilning sifati, uning ravonligiga e'tibor beradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimonning ega bo'lishi zarur bo'lgan sifatlari.
2. Lisoniy kompetensiya mohiyati nimadan iborat?
3. Konferensiya tarjimonining ishi qanday baholanadi?
4. Xalqaro Sinxron Tarjimonlar Assosiasiyasi haqida ma'lumot bering. Mazkur tashkilotga a'zo bo'lish talablari qanday?

5-MA'RUZA

Sinxron tarjimaning qo'llanilish sohalari. Sinxron tarjima bozori.

Sinxron tarjima xalqaro konferensiyalarda keng qo'llanishidan tashqari, yana diplomatik faoliyatlar, muzokara uchrashuvlar, savdo-sotiqqa oid tadbirlar, ommaviy axborot vositalari, tayyorlash va o'qitish kurslari, televidenie, xalqaro hakamlklar va hokazo ko'plab sohalarda keng foydalaniladi. Mazkur tarjima turidan farqli izchil tarjima usuli ko'lamini nisbatan kichikroq bo'lgan faqat ikkita ishchi tildan foydalanadigan tadbirlarda ko'p foydalaniladi, masalan, diplomatik uchrashuvlar, ikki tomonlama muzokaralar, ekspedisiyalar, kichik sohaviy muhokama kelishuvlar, muxbir intervyulari, sud jarayoni, banket nutqlarida foydalaniladi.

BMTda rasmiy faqat olti xil til, arab tili, xitoy tili, ingliz tili, fransuz tili, rus tili va ispan tillari ishlatiladi. Mazkur oltita til ham teng ravishda katta natijaga ega bo'lib, delegatlar nutq chog'ida istalgan bitta tilni tanlashlari mumkin. BMT kotibiyatining kundalik foydalanuvchi ishchi tili esa ingliz va fransuz tillaridir.

BMTning har qanday rasmiy konferensiyalari olti tilda olib borilib, rasmiy xujjatlar, shuningdek muhim nutqlar ham olti tilda nashr etiladi.

Sinxron tarjima bozorining kengayish tendensiyasi o'sib bormoqda. Bu bozorga ishchi doiralar tomonidan "pul yetishmaydi emas, balki odam yetishmaydi" deb sifat beradilar. Sinxron tarjima kadrlari butun dunyodagi kamyob kadrlar qatoriga kiradi. Yana shuningdek, kadr tayyorlashning ham eng mushkul sohalaridan biridir. Butun dunyoda professional kadrlar soni jami 2000 dan ziyodni tashkil qiladi.

Garchi, hozirda ingliz tili keng ommalaviylashib bo'lgan bo'lsada, lekin asl "sinxronist" bo'luvchi iste'dodlar juda ham oz. Ingliz, fransuz, rus tillaridan boshqa barcha "kichik tillar"dan sinxron tarjimonlarni esa uchratish amrimahol. Xalqaro udumdagi, savdo-sotiq, texnika, siyosat singari turli sohalardan bilimga ega professional sinxron tarjimonlar esa bo'shliq singaridir.

Sinxron tarjimonning daromadi "oy" bo'yicha hisoblanadigan "oylik maoshi" bo'lmay, balki maoshning birligi "kun", aniqroq aytadigan bo'lsak, "soat", "daqqa" birligi bilan o'lchanadi. Ish vaqti 8 soat hisoblanib, odatda konferensiya boshlanishidan 4 soat o'tsa yarim ish kuni hisoblanadi.

Misol tariqasida XXR sinxron tarjimonlarining preyskurantini oladigan bo'lsak, ingliz tili tipi bir kuniga 12000-21000 yuan, ingliz tilidan boshqa tillar tipi bir kuniga 18000 yuan narhida baholanadi. Odatda sinxron tarjimonlar 2-3 kishilik guruhda almashib ishlaydilar. Yuqorida ko'rsatilga narh – bu bitta guruhning bir kunlik tarjima bahosidir. Shu sababli buyurtmachi guruhdagi tarjimonlarning qay tarzda ish va dam olish vaqtini bo'lishtirishlariga aralashishga hech qanday huquqi yo'q. Shundan kelib chiqib XXRda sinxron tarjimonning daromadi bir kunda eng kamida 4000 yuanni tashkil qilar ekan. Rossiyada esa sinxron tarjima xizmati bir soati uchun 4000-7000 rubl yoki to'liq bir ish kuni uchun 20000-30000 rublni tashkil etadi.

Talabning kattaligi tufayli kerakli miqdorda sinxronistlarni topish va ularni bron qilib qo'yishning har doim ham imkoni yo'q. Bundan tashqari sinxronistlar orasida sinab ko'rilmagan hamkasblarning buyurtmasiga darhol kirishish odati

yo'q. Lekin bunday vaziyatda boshqa sinxronistlarning tavsiyanomasiga ko'ra buyurtmachi bilan hamkorlik qilishlari ham mumkin.

“Sinxron tarjima faoliyati shuqadar murakkab va xizmati izchil tarjimaga nisbatan shuqadar qimmat ekan, nima sababdan bu tarjima faoliyatidan foydalanadilar?” degan savol tug'iladi. Bunga javoban, sinxron tarjima vaqtni tejaydi, deyishimiz mumkin. Izchil tarjimada har qanday ma'ruza-chiqishning vaqti kamida ikki baravarga o'sadi. Shunday ekan, konferensiya o'tkazish uchun joy ijarasi, mehmonlarning yashashi va ovqatlanishi uchun ketadigan ortiqcha kunning harajati buyurtmachi uchun yanada qimmatga tushadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimaning qo'llanilish sohalari qanday?
2. Sinxron tarjimonning pul maoshi qanday vaqt birligida o'lchanadi?
3. Izchil tarjima bilan sinxron tarjima xarajatlari o'rtasida farq bormi? Mazkur og'zaki tarjima turlaridan qay biri kamxarj?

6-MA'RUZA

Xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimani tashkil etish sxemasi

Xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimani tashkil etishning ikkita sxemasi mavjud.

Birinchi sxema - to'g'ridan to'g'ri tarjima sxemasi – Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning maxsus muassasalarida qo'llaniladi. Bu sxemada kabinalar soni yig'ilish yoki sessiyaning ishchi tillari soni muvofiq keladi. Masalan, BMT organlarining yig'ilishlarida qabul qilingan beshta rasmiy tillarda qiyidagi til kabinalari ish olib boradi: ingliz tili, fransuz tili, rus tili, ispan tili va xitoy tili. Har bir kabinada har yig'ilishda o'z kabinalari tiliga qolgan to'rtta tildan tarjimani ta'minlashi kerak bo'lgan tarjimonlar brigadasi ishlaydi. Bunday qoida har doim ham amaliyotda chidam bermaydi deb taxmin qilinadi, ya'ni sinxron tarjima tarjimon tomonidan o'z ona tiliga bajariladi. Odatda kabinaga 2 ta tarjimon

biriktiriladi. Ularning umumiy til kombinatsiyasi ikkisining birga to'rtta tildan bevosita o'z ona tiliga tarjimani amalga oshirishlari ko'zda tutiladi. Bu shu demakki, olaylik, bir rus kabinasidagi tarjimon ingliz tili, fransuz tili, ispan tilini, ikkinchisi esa ingliz va rus tilini bilishi kerak. Bunga o'xshash qoidalar boshqa barcha kabinalariga ham taaluqlidir.

Sinxron tarjimani tashkil etishning ikkinchi sxemasi yetakchi til orqali tarjima yoki "bosh tarjimon bilan" tarjima sxemalari nomini olgan. Bu sxema asosan sotsialistik mamlakatlarda qo'llanilgan. Bunday sxemaga ko'ra konferensiyaning ishchi tillaridan biri (ingliz tili deb olsak) yetakchi, o'q tili deb e'lon qilinadi. Bu kabinalar soni konferensiya yoki kongress ishchi tillarining soniga nisbatan doim bittaga kam bo'lishini anglatadi. Beshta ishchi til – rus, ingliz, fransuz, ispan, va nemis tillari bo'lsa, konferensiyada faqat to'rtta kabina: rus, fransuz, ispan, nemis tillari kabinolari bo'ladi. Agar notiq ingliz tilida chiqsa, tarjimonlar brigadasi (odatda uch kishili) har bir kabinada ingliz tilidan o'zining kabinasi tiliga tarjimani amalga oshiradi, agar notiq ana shu chet tilida chiqish qilsa, chet tilidan ingliz tiliga tarjima qilishadi. Ikkinchi xolatda uchta qolgan kabinalar o'zining kabinasi tiliga notiq nutqidan bevosita emas, balki birinchi, ya'ni "o'q" yoki "yetakchi" kabinasi tomonidan amalga oshirilgan uning ingliz tilidagi nutqidan tarjimani amalga oshiradilar. Yetakchi kabinalar tarjimoni "asosiy tarjimon"ga aylanadi. Shu tariqa barcha xollarda, notiq ingliz tilida ma'ruza qilmaganida, boshqa chet tillariga ikki pog'onali tarjima amalga oshiriladi.

Har qanday kabina, ya'ni har qanday tarjimon konferensiyaning har bir muddatda "asosiy tarjimon"ga aylanishi mumkin. Brigade har qanday tarjimon navbatma-navbat yo o'zining chet tilidan ingliz tiliga, yoki ingliz tilidan chet tiliga tarjima qiladi.

Sinxron tarjimani tashkil etishning u yoki bu sxemasini qiyosiy solishtirishga o'tishdan oldin, sinxron tarjimada til kombinatsiyasi tushunchasini kiritamiz. Kombinatsiya tushunchasi ostida biz sinxronist tomonidan bir aslyat

tilidan boshqa muayyan bir tarjima tiliga bajariladigan tarjimani tushunamiz. Masalan, ingliz tilidan rus tiliga tarjima. Bu xolda tarjimon ingliz-rus kombinatsiyasida ishlayapti deyish mumkin.

Yana ma'lum bir sinxron tarjimon ishlaydigan kombinatsiyalarning soni haqida gapirish mumkin. Masalan, BMTda sinxron tarjimonga qo'yiladigan rasmiy talablardan biri bu ikkitada ortiq til kombinatsiyalarida ishlay olishdir. Qoidaga ko'ra, bu ikkita chet tilidan ona tiliga tarjimasida kombinatsiyalarning muvofiqligi bo'lishi kerak. BMT qabul qilgan sxemaga muvofiq ish ko'rishda tarjimon konvergent kombinatsiyalarda ishlaydi. Ikkinchi sxemada esa tarjimon o'zaro qaytariluvchi yoki reversiv kombinatsiyalarda ishlaydi.

Ikkipog'onali tarjima sxemasining kamchiliklari sifatida A.D.Shveysar quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Yetkazilayotgan ma'lumotning hajm va aniqlik jihatidan yo'qotilishi.
2. "Bosh tarjimon" tomonidan bajarilgan tarjimadagi har qanday yanglishish barcha kanallarda qaytarilishi muqarrar.
3. "Bosh tarjimon" qo'shimcha mashaqqat chekadi, masalan, o'zining tarjimasini nafaqat qabul qilinishga, balki tarjimaning ohang va tempiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa tarjimonlar tomonidan qayta yaratilishini ham mo'ljalga olishning zaruriyligi.
4. Bir turdagi ishdan boshqa turdagi ishga (masalan, ingliz tilidan xitoy tiliga tarjimadan xitoy tilidan ingliz tiliga tarjimaga) tez-tez o'tish qiyinchilik tug'diradi.
5. Jiddiy texnik qiyinchiliklar gohida boshqaruv pul'tidagi kanallarni tez-tez o'tkazishning zaruriyligi natijasida yuzaga keladi, ayniqsa qisqa luqmalar bilan almashinishda (masalan, "aylana stol" uchrashuvlari chog'ida).

BMT va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar qabul qilgan bir pog'onali sxema har bir sinxronist ikki yoki undan ortiq chet tillaridan o'z ona tiliga tarjima qilishlari uchun mo'ljallangan. Bu sxema nazariy jihatdan yanada yuqori sifatli

tarjimani ta'minlashi kerak. Lekin shuni ko'rsatib o'tish kerakki, bir pog'onali sxema faqat kam sonli ishchi tilli konferensiyalarda imkonidir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimani tashkil etishning nechta turi mavjud? Ularning nomlanishi, mohiyati.
2. Til kombinatsiyasi tushunchasi nima?
3. Ikkipog'onali sxemaning kamchiliklari nimada?

7- MA'RUZA

Sinxron tarjimada tema va rema masalasi

Tinglovchi va shuningdek, xususan sinxron tarjimonning u alohida jumla bilan chegaralanganida ega bo'ladigan "anglashi"ning imkoniyatlarini ko'rib chiqqanda, bu chegaralar sinxronist uchun unchalik tor bo'lib qolishi mumkin degan xulosaga kelmay bo'lmaydi. Sinxron tarjima jarayonining me'yoriy kechish sharti asliyat tilida alohida fikr – jumlalarning emas, balki yirikroq tuzilmalar, ya'ni matn yoki diskurs (aloqachi xabar)ning mavjudligi hisoblanadi. So'nggi yillarda tilshunoslarning ko'p qismi matn, diskurs masalasiga e'tibor qaratmoqda. Jadal rivojlanishni matn tilshunosligi deb nom olgan tilshunoslikning bo'limi o'z boshidan kechirmoqda. Matnga til va nutqning kommunikativ mohiyati masalasiga qiziquvchi olimlar murojaat qilmoqdalar.

Tema va rema tushunchasi gapning kommunikativ strukturasining tahlili jarayonida tilshunoslikka kiritildi.

Tema va rema tushunchalari va hodisalarini tushunish va sharxlash masalalari bo'yicha tilshunoslarning o'rtasida olib borilayotgan baxsli munozaralarda, kommunikativ sintaksis bo'yicha barcha ishlarda aslida bitta va o'sh hodisa haqida gap ketadi: kommunikatsiyaning boshlang'ich nuqtasi, ya'ni "eski", "ma'lum bo'lgan xabar" – tema hamda xabar nima uchun qilinyapti, "yangi", "yangi ma'lumot", "kommunikativ yukning cho'qqisi" – rema haqida. Shunday qilib,

tema va rema – bu xabarning boshlang'ich nuqtasidan asosiy xabarlanmish, ya'ni xabar nima uchun qilinayotganlik mazmuniga kommunikatsiya harakatlari jarayonining statik ifodasidir.

Tema va rema tushunchalariga murojaat qiluvchi ko'pgina tadqiqotchilarga xos bo'lgan ikkinchi umumiy xususiyat tema va rema roliga alohida leksema va gap bo'laklaridan tarkib topuvchi leksema guruhlarining berilishi hisoblanadi. Bunda tema va remani ajratib ko'rsatish uchun asosiy argument kommunikativ, ma'noli strukturaning gapning sintaktik strukturasiga mos kelmasligi bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, tema va rema shu holda ajratib ko'rsatiladiki, yuzaki gapda ularni ega va kesimga, subyekt va predikatga zid qo'yilish xolatida. Tema va rema ta'rifi va subyekt va predikati ta'rifining o'xshashligiga antik faylasuf va filologlarning bildirgan fikr-mulohazalariga nisbatan S.D.Katsnel'son shunday deydi: "...neytral, shakli o'zgacha unsurlar tomonidan o'zgartirilmagan mulohazalarda subyekt bu tema demakdir. Modomiki baribir bu tushunchani farqlashga to'g'ri kelsa, bu faqat ayrim hollarda sub'yekt shakli yoki butunlay "detematizatsiyalashadi", yoki bo'lmasa ikkinchi darajali tema mazmunini oladi. Temaning asosiy funktsiyasini esa subyekt shakliga kirmagan so'z bajaradi". Bu haqda U.Cheyf ham shunday yozadi: "Ma'lum bir chegaralangan darajada o'sha farq o'z aksini subyekt va predikat atamalarida topadi. Bu ikki atama semantik strukturalar bilan emas, balki aniq bir yuzaki strukturalar bilan bog'langan. Lekin semantik strukturadagi eski ma'lumot va yuzaki strukturadagi subyekt o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud. Aqalli, ingliz tili kabi tillarda..." Agar gapning tema va remasi tushunchalari kommunikativ sintaksis yoki jumla-fikrning gap bo'laklariga bo'linishi nazariyasida o'ziga xos atama bo'lsa, matnning temasi tushunchasi nafaqat tilshunoslikda, balki har qanday boshqa ilmiy sohalar va shunchaki kundalik hayotda ham keng qo'llaniladi. Xabarni taxlil qila turib biz ham tema haqida gapiramiz.

Rema esa boshqa masala. Gap matn, butun bir xabar, haqida borganida, tema va rema alohida fikr-jumladan farqli o'laroq sifat jihatdan teng ma'noli bo'lmay qoladi. Tema – bu ma'lumot, xabarning boshlang'ich pallasi, kommunikatsiyaning jo'nash nuqtasi, bu xabar berilmishdir, va xabar tugallanmagunicha, tema saqlanadi. Uning verbal ifodasining semantic mazmuni zaruriyatga ko'ra iterativ, matnda takrorlanuvchidir. Aslini olganda matnning tematik tarkibiy qismi asosiy zveno, butun xabarning “skeleti” hisoblanadi. Fikr (jumla)ning remasi esa, aksincha matnda, butun xabarda yagona, qaytarilmasdir. Har bir keluvchi fikr-jumlada ilgarigi rema ravshan va yashirin tematik komponentning qismiga aylanadi, fikrning tarkibida bo'lgan tematik komponentga kiradi.

Xullas, tema tushunchasi ostida “bir qancha jumlar bilan ifodalangan” fikrning predmeti (subyekti) tushuniladi. Rema tushunchasi ostida yuzaki daraja jumlasining sintaktik predikati bilan mos kelishi mumkin bo'lgan, mos kelmasligi ham mumkin bo'lgan ichkarilikdagi predikati tushuniladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada tema nima? Uning sub'yektdan farqli tomoni.
2. Sinxron tarjimada rema nima? Uning predikatdan farqli qirrasini.
3. Tema masalasi yuzasidan nazariyotchi olimlarning fikrlari (U.Cheyf, S.D.Katsnel'son va h.k.).

8 – MA'RUZA

Sinxron tarjima faoliyatida tayanch daraja so'zlari, ustkategoriya va ostkategoriya so'zlar bilan ishlash

Sinxron tarjima bo'yicha ko'pgina ishlar sinxron tarjimini ma'lumotni qayta ishlash nazariyasi nuqtai nazaridan o'rgangan. Bunga muvofiq sinxron tarjima jarayonini bir qancha kichik vaifalarga bo'lish mumkin. Ularning bajarilishi sinxron tarjimon diqqatidagi resurslarning taqsimlanishiga, yana shuningdek, sinxron tarjimonning oldiga qo'yilgan vazifalarni murakkablashtirish yoki

yengillashtirishga qodir lingvistik omillarga bog'liq. Masalan, asliyat tilidagi so'nggi o'rinda fe'l keluvchi gaplarda so'zlar tartibi diskursni sinxron tarjima qilish vazifasini og'irlashtiradi. Tarjimaning interpretatsiya nazariyasi sinxron tarjimani bir butun sifatida, ya'ni ma'noni yetkazish jarayoniga deterministik qarashga asoslangan o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon. Sinxron tarjimaning pragmatik nazariyasi sinxron tarjimaning ayrim strategiyalari (tarjimada stolling yoki chiziqlilikni saqlash) tabiiy pragmatik xulosa shakllari sifatida ishlatilishini to'liq izohlaydi.

Sinxron tarjima tadqiqotchisi E.Rosh tadqiqotlar natijasida shuni ta'kidlaydiki, misol uchun "chair" tushunchasining tayanch kategoriyasi xususan ob'yektdan emas, balki muayyan bir individuum mazkur ob'yekt bilan qanday o'zaro harakatlanishi, uni qabul qilishi va undan foydalanishiga bog'liqdir. Shunday ekan, agar "chair" tushunchasi "o'tirish mumkin bo'lgan biror narsa" sifatida qabul qilinsa, "furniture" kategoriyasida esa bunday mazkur tushunchani muayyan individuum bilan assotsiasiyalanishi mumkin bo'lgan qator yo'q. Shu tariqa "furniture" mavhumroq ustkategoriya hisoblanadi.

Sinxron tarjimon o'z faoliyatida doim tayanch daraja, ustkategoriya va ostkategoriyalarni tanlash muammosi bilan duch keladi. U yoki bu tushunchani not'g'ri tanlash g'aliz tarjimani keltirib chiqaradi. Masalan, "qadah" so'zini ko'pincha ingliz tiliga "wine glass" deb tarjima qilishadi. Aslida ham bu haqiqatga butunlay to'g'ri. Tayanch darajali o'zbek tilidagi qatorlarni ko'rib chiqamiz va ingliz tili bilan solishtiramiz:

idish _____stakan_____qadah

Bu yerda "stakan" tayanch darajaga mansub bo'aldi. Idish – ustkategoriya, qadah – ostkategoriya. "Fujer" ("qadah") so'zi Ojyogov lug'atida: "Baland oyoqli katta bokal", deb izohlanadi.

Mazkur izohdan ko'rinib turibdiki, "fujer" tushunchasiga "baland oyoq" semasi kirar ekan. Aynan shunisi bilan qadah oddiy stakandan farq qiladi. Bundan tashqari,

“stakan” tayanch darajaga mansub, shu asnoda “qadah” ostkategoriyaga kiradi. Bunday o’zaro munosabat ingliz tilidagi “wine” prepozitsiyasini qo’llashda ham o’zgarmaydi.

dishes_____ (wine) glass_____ flute

Ushbu misolda ko’rinib turganidek, “fujer” (“qadah”) so’ziga ingliz tilida ko’proq “flute” so’zi muvofiq keladi. E.Roshning xulosalari va “tayanch daraja” tushunchasini kiritishi etnobiologiya sohasidagi tadqiqotlarni ildamlatdi.

Sinxron tarjimon oldida turgan muammolardan biri aslyat tilidan tarjima tiliga nafaqat ustkategoriya va tayanch darajalarni, balki ostkategoriyalarni ham to’g’ri yetkazishdan iborat bo’ladi.

Lekin ayrim sabablarga ko’ra buning imkoni bo’lmaganida yagona konfiguratsiya sifatida qabul qilinadigan tayanch daraja ustkategoriyaning ham, ostkategoriyaning ham o’rnini bosishi mumkin. Axir sinxron kontekstda “fujer” so’zini ingliz tilidagi “glass” so’zi bilan berish to’liq o’zini oqlaydi, bu singari tarjima unchalik aniq bo’lmasa ham.

Bunga misollarni quyidagi jadvaldan ham ko’rishimiz mumkin.

Aslyat tilidagi aslyat varianti	Not’g’ri tarjima varianti	To’g’ri tarjima varianti
dozimetr	dosimeter	radiation monitor
texnik vazifa	technical task	statement of work
xomaki loyiha	sketch design	preliminary design
ko'mir-suv pul'pa	coal water pulp	coal water slurry
ko'mirni boyitish	coal enrichment	coal preparation
ko'pprofilli shaharlar	mono-profile cities	company towns

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada tayanch daraja so'zlari, ustkategoriya va ostkategoriya so'zlar nima?
2. Bunday so'zlarni bir-biridan qanday farqlash mumkin?
3. Tarjima tilida bunday so'zlarni to'g'ri yetkazish prinsipini ko'rsating.

9-MA'RUZA

Sinxron tarjima faoliyatining kommunikativ vaziyati

Sinxron tarjimani va uning mexanizmini ko'rib chiqishda kommunikativ vaziyat muammosi o'zining spetsifik belgilariga ega bo'ladi. Sinxron tarjima mexanizmini ko'rib chiqishga butun bir xabar (matn) vaziyatining xabar (matn) strukturasi predikativ-ma'noviy xarakteri bilan o'zaro ta'siri muammosini kiritish juda muhim hisoblanadi. Uni kommunikativ vaziyat deb nomlaylik. Kommunikativ vaziyatni kommunikatsiya amalga oshiriluvchi, xabar to'la ochib ko'rsatiluvchi ekstralingvistik sharoitlar omillarining to'plami sifatida ko'rish mumkin. Kommunikativ vaziyatni tadqiqot maqsadiga ko'ra turlicha tasniflash mumkin. Og'zaki tarjima nuqtai nazaridan kommunikativ vaziyatni manba tomonidan va retsiyent tomondan kommunikatsiya ishtirokchilarining (bular o'rtasida vositachi sifatida og'zaki tarjimon chiqadi) soniga qarab tasnif etish mumkin. Bunday tasnif og'zaki tarjimaning turli xil turlariga muvofiq keladi: ikkitomonlama tarjimaga, konferensiyada delegate qulog'iga tarjimani pichirlab yetkazish va h.k.

Bu nuqtai nazardan, notiqlik chiqishi sinxron tarjimasi uchun kommunikativ vaziyatki, unda xabarning manbasi – nutq (monolog) bilan chiquvchi individuum va kollektiv retsiyent (auditoriya)siga ega bo'lgan kommunikativ vaziyat relevantli hisoblanadi. Bu vaziyatni shartli ravishda KVst deb nomlaymiz.

KVst da quyidagi: 1) Kim? 2) Nima haqida? Qaysi mavzuda? 3) Kimning oldida? Kimga? 4) Qayerda? 5) Qachon? 6) Nima uchun? Qaysi maqsadda? 7) Nimaga? savollariga javob berishda namoyon bo'luvchi unsur (omil)lar to'plamini

ajratib korsatish mumkin. Bu to'plamga "nima qilyapti?" savoli kirmaydi, chunki bunga javob KVst ta'rifiga ko'ra juda aniq-ravshan – "nutq bilan ishtirok etadi". Shu tariqa KVst strukturasi unsurlarini xabar manbai (notiq) – S, xabar mavzusi (tematik ramkalar) – T, retsipyent (forum ishtirokchilari tarkibi, auditoriya) – A, joy (forum) – F, vaqt (ma'lum bir hodisaga mansublik yoki hodisalarning izchilligi) – E, chiqishning maqsadi – P va uning motivi – M ni ko'rsatuvchi xos omillar to'plami sifatida tasavvur qilish mumkin.

KVst omillarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

F – forum. Forum tushunchasi ostida xalqaro tashkilotning navbatdagi yoki favqulodda sessiyasini yoki bir martalik xalqaro uchrashuv yoki konferensiya (kongress, simpozium va b.)lar tushuniladi.

T – tematik ramkalar. Xabar (nutq, ma'ruza, muzokaralardagi chiqishlar va h.k.) tarjimasiga qo'yiladigan tematik ramkalar xabar mavzusiga aniq bir tavsifni ifodalamaydi, lekin ma'lum darajada aniq chizilgan kelgusi xabarlar tematikasi doirasini belgilaydi. Bunda mazkur tematik doiradan chiqib ketuvchi boshqa mavzularni inkor etadi. Shuni ko'rsatish lozimki, T omili xabarning o'zining mazmuni bilan chambarchas bog'liq va faqat xabar jarayonida butunlay namoyon bo'ladi.

E – payt yoki voqeaviy ramkalar. Bu omilni yana ikki ostomil – voqea-hodisa yoki voqea-hodisalarning izchilligi (E ning o'zi) hamda vaqt omili (E_t).

E omili tushunchasi ostida mazkur forumni chorlash uchun sabab bo'lgan voqea-hodisalar, shuningdek forum ishi bilan hamda forum ishi jarayonida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunamiz.

E_t xususiy omili toza davriy omil sifatida alohida ko'rib chiqishni talab etadi. U avvalambor doimiy xalqaro tashkilotlar ishi vaziyatiga aloqador. Misol bilan tushuntiramiz. Sinxronistni ishga chorlash vaqti to'g'risida boshlang'ich ma'lumot forum haqidagi va ko'pincha, har doim ham bo'lmasa-da voqea-hodisa va yig'ilish tematikasi haqidagi signal bo'lib xizmat qiladi. Masalan, BMT sinxronistini

otpuskadan sentyabrning boshida chaqirib olishi BMT Bosh Assambleyasi yoki ishchi organlarining favqulodda (rejalashtirilmagan) sessiyasi chorlanganligini anglatadi. Tun yarimda telefon orqali ishga chaqirish esa BMT Xavfsizlik Kengashining shoshilinch chaqiriqni anglatishi muqarrar.

A – auditoriya. A omili S omili bilan maxsus bog'langan. Chunki ko'rib chiqilayotgan xalqaro muloqot sharoitlarida har bir "tinglovchi" yoki auditoriya a'zolari potensial va o'zi notiq (S) hisoblanadi. Shuningdek, A bilan tanish bo'lish darajasida $S_1, S_2, S_3, \dots S_n$ lar chiqishlarining maqsadi (P)ni bashorat qilish mumkin bo'ladi, ehtimoliy P doirasi belgilanadi.

S – notiq. Notiq bilan tanishuv (xoh ma'ruzachi bo'lsin, xoh muzokara ishtirokchisi) avvalambor qaysi mamlakat, partiya (yoki tashkilot, yoki ilmiy konferensiya uchun ilmiy maktab)ning vakili hisoblanishini bilish hamda muhokama qilinuvchi masala yuzasidan mazkur mamlakat (tashkilot, partiya, ilmiy maktab va h.k.)ning pozitsiya xususiyatlarini bilish ko'zda tutiladi. Notiq bilan tanishuvning keyingi bosqichi uning shaxsiyati (mavqesi, notiqlik dalillari) bilan, va yana imkonqadar chiqishining motivi va maqsadi bilan tanishish bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada kommunikativ vaziyat nima?
2. Sinxron tarjimada kommunikativ vaziyatga javob berish lozim bo'lgan savol shakllari qanday?
3. Sinxron tarjima kommunikativ vaziyati unsur va omillari nimalardan iborat?

10- MA'RUZA

Sinxron tarjimada strategiya. Real sinxron tarjima vaziyatida turli strategiyalarning o'zaro munosabati.

Sinxron tarjima tadqiqotchilarining aksariyati strategiya deganda asliyat tilidan tarjima tiliga tarjima qilishda xabarga ishlov berishdagi konferensiya tarjimoniga zaruriy ko'nikma yoki ma'lum bir mahoratlarni tushunadilar.

Sinxron tarjimada strategiya – tarjima vazifalarini amalga oshirish uslubi bo'lib, bu ma'ruzachining madaniy va shaxsiy xususiyatlarini, baza darajasini, til ustkategoriyalari va ostkategoriyalarini hisobga olgan holda xabar yuboruvchining kommunikativ maqsadini aslyat tilidan tarjima tiliga adekvat tarzda yetkazib berishdan iborat.

Mazkur izohdan shuni ko'rish mumkinki, strategiya tushunchasi ham lisoniy, ham g'ayrilisoniy omillarni o'zida jamlab, bu omillarning har biri tarjimaning ma'lum bir parchasida u yoki bu (yoki bir vaqtda bir necha) uslublar tanlovini shart qilishi mumkin. Tajribali tarjimonning strategiya tanlovi ko'pincha avtomatizm rejimida amalga oshadi. Bundan tashqari strategiya aslyat tilidan tarjima tiliga tarjima qilishda adekvatlik va muqobillikka erishish vositasi bo'lganligi sababli, sinxron tarjimon tomonidan bir vaqtning o'zida bir necha strategiyalar qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, asos sifatida strategiyalardan biri olinib, boshqalari esa qo'shimcha bo'lishi mumkin. Masalan, dastlab tanlab olingan uslub istalgan natijalarga olib kelmasa, ana shu qo'shimcha strategiya murakkab vaziyatdan chiqishning vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sinxron tarjima tadqiqotida qarama-qarshi bo'lgan masalalardan biri bu ko'p yillardan buyon sinxron tarjima qaysi til juftligida katta qiyinchiliklar mavjudligi borasida olib borilayotgan bahslardir. Eng keng tarqalgan 10 ta sinxron tarjima tillari (ingliz, nemes, arab, rus, xitoy, fransuz, italyan, yapon, portugal, ispan) orasida 3 tasi shunday sintaktik strukturaga egaki, bunda fe'l gapning so'nggida keladi. Lekin arab tilida aksincha, fe'lli konstruksiya gapning boshida keladi. Ayrim tadqiqochilar tarjimaning qiyinchiliklari til juftliklariga bog'liq emas deb hisoblaydilar. Umuman olgan til jamiyati ikki qarama-qarshi maktabga bo'lingan bo'lib, ularni shartli ravishda «ikkitarafmaliliklar» va «universalistlar» deb atash mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada strategiya nima?

2. Sinxron tarjimada strategiyalarning o'zaro munosabati qanday?
3. Til jamiyatidagi ikkitarafmaliliklar va universalistlarning qarashlari.

11-MA'RUZA

Sinxron tarjimada sinab ko'rish va xatolar strategiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Sinab ko'rish va xatolar strategiyasi – STda muqobillik va adekvatlik (tenglik, moslik)ka erishishning usullaridan biridir. A.D.Shveysar SXS ni «ma'lum bir tanlov kriteriyalariga javob bermaydigan variantlarni rad etish yo'li bilan eng maqbul yechimga izchil yaqinlashish» strategiyasi deb izohlaydi. Mazkur strategiya bevosita keng va tor kontekst tushunchalari bilan aloqador. Yozma tarjimaning og'zaki tarjimadan ustunliklaridan biri shundan iboratki, yozma tarjimada tarjimonda deyarli doim keng kontekst bor. STda esa bunday vaziyatlar ancha oz. sinxron tarjimon keyingi sahifani varaqlab keyinida nimalar kelishini, u yoki bu tushuncha ortida nima turganligini ko'ra olmaydi. Bu yerda avvalambor, tarjima kabinasida ma'ruza-chiqishning tayyor transkripti mavjud bo'lmagan xolatlar haqida so'z ketmoqda. Odatda bunday strategiya xabar yuboruvchi keng kontekstsiz tarjima qilish mushkul qator tushunchalarni sanab ko'rsatayotganida qo'llaniladi. Bu vaziyatda so'zma-so'z tarjima bebaho xizmat qilishi mumkin

The subject of my presentation is world-views. First, we'll speak about the three major world-views, and then I'll touch upon the others. The major world-views are:

Naturalism

Transcendentalism

Theism

I'll repeat that again:

ST: Ma'ruzamning mavzusi – dunyoqarash. Dastlab, biz uchta asosiy dunyoqarash to'g'risida so'zlashamiz, keyinroq esa boshqalarida ham to'xtab

o'taman. Mazkur uch dunyoqarash quyidagilardir: Naturalizm, Transsendentalizm, Teizm. Yana bir bor qaytaraman.

(«Umumbashariy qadriyatlar negizida ta'lim tarbiyani insonparvarlashtirish» konferensiyasi)

Ushbu kontekstda naturalizm tushunchasini tarjima qilishdek tarjimonlik muammosi yuzaga keladi. Kontekstning torligi tufayli nima nazarda tutilayotganligi unchalik aniq emas. Sinxron tarjimon mazkur tushunchani matnga yaqinroq qilib, harfiy tarjima qildi.

Oldindan aytib qo'yish ma'qulki, SXS o'zining tabiatiga ko'ra dvoichniy. Dvning prinsipi quyidagilarda o'z aksini topadi: birinchidan, STon muayyan bir tushunchaning aniqroq tarjimasini berish uchun keng kontekstga ega bo'lish maqsadida sinab ko'rish yo'lidan yurganida, u xatolikka yo'l qo'yishi ham mumkin, to'g'ri variantni berishi ham mumkin.

Xato va to'g'ri variantning foizdagi nisbatini tajriba yo'li bilan ko'rsatish amrimahol. Har bir vaziyat juda xususiy va u ko'plab omillarga bog'liq: tarjimonning umumiy bilimlari, ST amalga oshirilayotgan vaziyatni, mavzularni bilish, shuningdek ma'ruzachi va uning materialni bayon etish uslubi bilan tanish bo'lish kabi omillar. Tarjima vaqtiga qadar tarjimon mavzuni, vaziyatni, ma'ruzachi va uning bayon etish uslubini qanchalik yaxshi bilsa, shunchalik xatolarning oz bo'lish va to'g'ri variantni ko'proq tanlanishi ehtimoli mavjud

Ikkinchidan, SXSning mohiyati tarjimonning qancha tez orada xatolikka yo'l qo'yganini anglashi va qanchalik tezlikda bu xatoni tez va tarjima uchun og'riqsiz to'g'iray olishidan iborat. Boshqa so'z bilan aytganda, TTda matn mazmunida minimal yo'qotishlar bilan noto'g'ri variantning to'g'ri variantga qayta shakllantirish uchun qanday kontekst zarur. Shunday qilib, SXS ikki oststrategiyasi bilan ajralib turadi. bular: Ehtimoliy xato oststrategiyasi va to'g'ri variantning tanlanishi oststrategiyasi.

Bu xolda sinxron tarjimon naturalizm tushunchasini rus tiliga naturalizm deb tarjima qildi.

Bu tarjimonning tarjima jarayonida ega bo'lgan tor konteksti tufayli sodir bo'ldi. SXS strategiyasidan foydalanib, u so'zning eng birinchi ma'nosini tanlashni afzal bildi, chunki bunda tarjimaning to'g'ri variantini berishning imkon darajasi yuqoriroq bo'ladi. Aytib o'tilganlarning tasdiqi sifatida naturalizmning Vebster lug'atida keltirilgan imkon darajada barcha ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

Naturalism - **1:** action, inclination, or thought based only on natural desires and instincts **2:** a theory denying that an event or object has a supernatural significance; *specif:* the doctrine that scientific laws are adequate to account for all phenomena **3:** realism in art or literature; *specif:* a theory in literature emphasizing scientific observation of life without idealization or the avoidance of the ugly.

Bunday hollarda sinxron tarjimonning ishi ko'p jihatdan yozma tarjima faoliyatiga o'xshaydi, faqat shu farq bilanki, sinxron tarjimon juda qat'iy vaqt limiti bilan chegaralangan va u lug'atlardan foydalana olmaydi. Yozma tarjimon esa ma'lumot beruvchi adabiyotdan.

Ko'pincha ma'ruza bilan oldindan tanishib chiqishning imkoni bo'lmaganida sinxronist uchun ma'lumot manbai sifatida ma'ruzaning keng konteksti xizmat qiladi. Bu tarjimonga sinab ko'rish va xatolar usulini qo'llashga yo'l beradi. Albatta, bu usuldan kamroq foydalangan ma'qul, lekin hech bir shubhasiz bunday strategiya mavjud bo'lish huquqiga ega.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada sinab ko'rish va xatolar strategiyasining mohiyati nimada?
2. Sinxron tarjimada tarjima tilida minimal yo'qotishlar, ularning sabablari nimada?
3. Ehtimoliy xato oststrategiyasi va to'g'ri variantning tanlanishi oststrategiyasi tushunchasini tushuntirib bering.

12-MA'RUZA

Sinxron tarjimada kutish strategiyasi xususiyatlari

Sinxron tarjimada tarjimon bir vaqtning o'zida bir necha strategiyalardan foydalanadi. Odatda qaror holatga bog'liq holda qabul qilinadi. Bu holatga albatta lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Kutish strategiyasi dunyo tarjima amaliyotida ma'noli fe'l gapning so'nggida keluvchi tillardan tarjimalarda tez-tez qo'llanadi. Misol uchun, nemis tilidan yoki golland tilidan sinab ko'rish va xatolar strategiyasidan foydalanish holatida bo'lganida, bu strategiya tarjimonning asosiy vazifasi - to'g'ri qaror qabul qilish uchun ko'proq va kengroq ravishda kontekstga ega bo'lish yoki tanishishdir. Kutish strategiyasi Stolling va Sossisonaj strategiyalari va bir paytda "kutish strategiyasi" bilan ko'rib chiqilishi zarur bo'lgan strategiyalarga yaqin hisoblanadi. Umuman olganda sinxron tarjimada mavjud bo'lgan barcha strategiyalar jamlab yig'ma holda ko'rib chiqilishi kerak. Ba'zida, tarjimonning qaysi bir strategiyani tanlashda umuman kutilmagan omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, uning psixologik va shaxsiy sifatlari sinxron tarjimonga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tarjima kontekstida strategiyalar tarjima muammolarining yagona tuguniga o'ralib birgalikda funktsiya bajaradi.

Kutish strategiyasi shundan iboratki, bildirilgan fikr, mulohaza ma'nosi mavjud kontekstdan umuman oydin bo'lmasa, unda sinxron tarjimon tekstning qolgan qismini, qaysiki ma'noni oydinlashtiruvchi qolgan qo'shimcha qism-komponentlarini ham kutib biroz pauza qiladi. Agar ma'lumot qabul qilayotgan shaxsni biroz vaqtga tarjimasiz qoldirib, noqulay vaziyatga solib qo'ymasa, sinxron tarjimon bir necha sekundga pauza qilib turishi mumkin. Bu strategiyadan foydalanishning eng munosib payti bu haqiqiy, original diskursiya paytidir. Axir, notiqning nutqida ikki gap orasida pauza mavjud bo'lsa, odatda o'sha bo'shliq ma'noni ifodalovchi to'liq gap yoki uning bir qismi bilan to'ldiriladi. Mazmun ifodalovchi gapni aytgandan so'ng, tarjimon asliyat matnining kengroq mazmuniga ega bo'lish uchun pauza qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, qachonki maruzachi

navbatdagi ma'noni ifodlovchi gapni so'zlay boshaganda sodir bo'ladi. Auditoriya psixologik jihatdan bu pauza (bo'shliq)ni to'liq anglamaydi (sezmaydi). Chunki auditoriya diqqat e'tiborini avvalgi segment tarjimasini vaqtida qabul qilingan informatsiyani qayta ishlash (tahlil qilish) bilan band bo'ladi.

Bunday taktika faqat pauza unchalik uzoq bo'lmaganda va hammasi bo'lib bir necha sekundlardan iborat bo'lgandagina ma'qullanishi ko'zda tutiladi va bu sekundlar davomida chiqishda yanada kengroq kontekstlar paydo bo'ladi. Aks holda, tarjimonga kamroq afzal ko'riladigan sinab ko'rish va xatolar strategiyasiga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Ammo bu strategiyada xatolikka yo'l qo'yish ehtimolligi "kutish strategiyasi"ni foydalanishga qaraganda yuqoriroq. Aslida, umuman sinab ko'rish va xatolar strategiyasi tarjimani qutqarib qolish uchun eng so'nggi chora sifatida foydalaniladi. Xo'sh savol? Pauza qanchalik davomiy bo'lishi kerak? Ya'ni, sinxron tarjimada kutish strategiyasidan foydalanilganda pauzaning davomiyligi qancha bo'lishi kerak?

Bir tomondan u tarjimonning to'g'ri qaror qabul qilishi va unda kengroq kontekst bo'lishi uchun yetarli bo'lishi kerak. Boshqa tomondan ma'lumotni qabul qiluvchi (tinglovchi) qiynalmasligi uchun yetarli darajada qisqa va lo'nda bo'lmog'i darkor. Endi keling o'qituvchilar konferensiyasi tarjimasini va parchasini ko'rib chiqaylik. Bunda "P" uzun pauza, "p" qisqa pauza.

I believe that there are three very important needs that must be met in

Tarjima: / P / Uch narsa mavjud,

youth in order for them to achieve and find success. I believe that the first

qaysiki hayotda o'smirlarning o'z o'rnini egallashi uchun zarur bo'lgan. / p /

need is affiliation - feelings of worth, belonging... This is a very important

/ p / Birinchisi - bu / P / kollektiv hissi,

need.

ya'ni siz kimgadir kerakligingiz tuyg'usi. O'smirlarga buni sezish juda zarur.

Ushbu parchada, *affiliation* tushunchasini tarjima qilishda ko'proq kontekstga ega bo'lish uchun sinxron tarjimon unchalik uzun bo'lmagan pauza qildi. "P" davomiyligi jihatdan 3,5 sekundgagina tenglashadi, bu esa tinglovchining tushunchani asliyat tilini qabul qilishiga hech qanday amaliy ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday pauza oddiygina anglanmaydi, bu orada esa u tarjimonga so'zlovchi nutqining asosiy ma'nosini kengroq hajmda tushunishida eng muhim rolni o'ynaydi. Xuddi shunday chiqish Rossiya Federatsiyasi O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilga bishqa shunga o'xshash konferensiyada amalga oshirilgan. Bu safar, boshqa tarjimon qatnashdi va u tarjimada hech qanday pauza qilmadi va ma'noni ifodalovchi gaplarni amalda ma'ruzachining nutqi bilan birgalikda tarjima qila boshladi. U deyarli ma'ruzachidan ortda qolmadi va bu taxminan bir sekundlardan iborat bo'ldi, qaysiki qoidaga ko'ra nutqning buzib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan.

Sinxron tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi davomiyligiga ko'ra farqlanishim mumkin. Shubhasiz, ko'p narsa sinxronistning operativ xotirasiga, qabul qilingan informatsiyani bir necha sekund davomida ushlab turish qobiliyatiga va bir paytda o'z diqqat e'tiborini yangi segment analizida jamlashga bo'lgan qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Biroq baribir ma'lumotni asliyat tilidan tarjima tiliga eng munosib uzatilishi uchun yetarlicha konteksning mavjudligi asosiy rolni o'ynaydi. Tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, buning uchun tarjimon ma'ruzachini biroz oldinga qo'yib yuborishi zarur. Bu kabi ortda qolishlik ikki sekunddan to'rt sekundgacha bo'lishi mumkin. Gerver tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi davomiyligini lug'aviy birliklarda o'lchab ko'rishga urinib ko'rdi. Biroq shunday qarorga keldiki, ya'ni sinxron tarjima jarayonida tarjimon "sinxron qaytarish"dan ko'ra ma'ruzachini yanada oldinga qo'yib yuboradi, shuningdek o'zining keyingi tekshiruvlarida shuni e'tirof etdiki, so'zlar va bo'g'inlar soni ortda qolishda

ahamiyatli rolni o'ynamaydi, chunki asosiysi tarjimon tarjima variantini tanlashda nimaga tayanayotganligidir.

Ko'plab tekshiruvchilar tarjima tilida sinxron tarjimon samarali tarjimaga ega bo'lishi uchun nutqning optimal tezligini aniqlashga uringanlar. Ushbu masala o'zlarining tajriba tekshiruvlarida ko'plab qiziqarli natijalarga erishgan G.V. Chernov va A.F.Shiriyayev ishlarida ham tekshirilgan. Ma'lumki, misol uchun bir minutda notiq ikki yuz ellikdan ortiq bo'g'in ishlatsa, amalda sinxronistlar uni quvib yeta olmaydi va o'yindan chiqadilar. O'rta hisobda sinxronist ma'ruzachini o'zidan ikki-to'rt soniyagacha qo'yib yuborish kerak, to'qqiz sekunddan ortiq ortda qolish esa xavfli bo'lib, bunda tarjimon va ma'ruzachini bog'lab turgan aloqa yo'qoladi. Kimki ma'ruzachini bir sekundga o'zidan uzoqlashtirmasa, u jiddiy xatolikka yo'l qo'yadi.

Agar sinxronist nutqning ikki-uch so'zini eshitibq tarjimaga kirishsa, u o'sha yerning o'zidayoq nochor holga tushadi va beo'xshov sintaktik va grammatik xato konstruksiyalarni tuzadi. Qanchalik sinxronist gapni tugashigacha sabr qilsa, shunchalik unda aniq va chiroyli tarjima chiqadi va unga o'zini to'g'irlashga hojat qolmaydi. Tajribali, professional, nutqning birinchi sekundlaridan og'zaki ma'lumotni eslab qolish, tushinib olish va hatto qanday talaffuz qilishgacha ta'riflab olishda foydalanadi. Quyida o'qituvchilar konferensiyasi tarjimasi va originaldan nusxa keltiramiz. Bunda tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi bir-ikki sekundni tashkil etdi va ko'proq kontekstga ega bo'lish uchun pauza qilinmadi.

I believe that there are three very important needs that must be met in

Shunday hisoblaymanki, uch zaruriy narsa mavjud, qaysiki

youth in order for them to achieve and find succes.

ishtirokchilar muvaffaqiyat hissini tuyishni boshlashlariga yetishish uchun zarur.

I believe that the first need is affiliation.

Birinchi ehtiyoj – birga ishtirok etish hissi.

Youth must have a feeling of belonging and must experience friendliness and warmth.

Yoshlar o'zlarining biror-bir jaomaga mansubligini va o'zlariga nisbatan do'stona munosabat va iliqlikni tuyishlari kerak.

The second need is achievement. Youth must experience success.

Ikkinchi extiyoj bu yutuq. Inson omad hissini tuyishi kerak.

The third need that youth have is influence.

Yoshlarning uchinchi extiyoj bu – boshqalarga va o'zlariga ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega bo'lish.

Youth must feel they have some control over their lives and can impact the lives of others.

Yosh o'zining hayotini nazorat qilayotganligi va boshqalarning ham hayotiga ta'sir qilishi mumkiligini his etishi kerak.

Keltirilgan misolda biz tarjimonning bir qator amaliy xatoliklar va stilistik buzilishlarga yo'l qo'yganini, birinchi misolda esa tarjimon kengroq kontekstga ega bo'lishi uchun bir necha pauza qilgan va yaxshi tarjimaga erisha olgan. Haqiqatdan ham "affiliation" kabi tushunchalarni kontekstni to'liq tushunmadan tarjima qilishning iloji yo'q, shuning uchun kutish strategiyasi o'zini bunday hollarda oqlaydi. Ya'ni qachonki, dokladda qiyin tushunch paydo bo'lganda, tarjimon notiqni nima demoqchiligini oxirigacha kutib, fahmlab olishi darkor.

Yana bir kutish strategiyasidan foydalanishning o'ziga xosligi u iloji boricha tarjimonning ma'ruzachini ko'proq oldinga qo'yib yuborishidir. Bu air - voice span deb ham ataladi. Butun bir tekst borayotgan jarayonda tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi kutish strategiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi (TMO) bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar har xil natijalar bergan. Xo'sh, TMO Panet fikricha, nutq va tarjima o'rtasida ikki sekunddan to'rt sekundgacha vaqt bo'lishi lozim. Oleronova va Nanpen o'tkazgan kuzatuvlar natijasiga ko'ra esa bu oraliq yana olti sekundga oshdi va bu ikkidan

o'n sekundgacha bo'lgan oraliqni tashkil etishi kerak edi. Olimlar tasdiqlaydiki, tarjimani boshlash uchun va to'g'ri gap chiqarish uchun tarjimonga ma'lum miqdordagi ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Qaysiki, ko'p faktorlarga bog'liq bo'lgan. Misol uchun, kalit so'zlar va birinchi o'rinda fe'lni. Xulosa aniq. Sinxron tarjima alohida so'zlarning talabga mosligi darajasi bilan emas, bali nutqning ma'nosiga qarab amalga oshadi. Ya'ni bunda alohida ma'noviy birliklar ularni qo'llaganda umuman boshqa ma'no bilan to'ldiriladi. Gerver (1969) TMO'ni tarjimon va ma'ruzachi orasidagi oraliq vaqt davomiyligini o'lchashga urinib ko'rgan va shu xulosa keldiki, sinxron tarjimada tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi davomiyli sinxron takrorlanishdan ko'proq. O'zining so'nggi tekshiruvlarida Gerver shuni e'tirof etdiki, gapda so'zlar miqdori va bo'g'inlar miqdori tarjimaga aloqasizdir.

Aytishlaricha, o'n sekundgacha bo'lgan oraliq ham tinglovchini tarjimaning yo'qligidan noqulaylikka tushurish darajasida uzoq oraliq emas. Bu vaqtda bu oraliq tinglovchiga tarjima qilingan gapni yanada chuqur tushini olishi uchun yetarli hisoblanadi. Buning aksi tarzida tarjima tez bo'lsa, yaxshigina xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, kutish strategiyasi quyidagi holatlarda foydalaniladi, qachonki ma'ruzachi tomonidan biror qiyin tushunchaga aniqlik kiritilayotganda. Pauza tarjimada tarjimon biron qiyin tushunchaning ma'nosini olishi uchun yetarli darajada uzoqroq va tinglovchini tarjima mavjud emasligidan noqulaylikka solmaslik uchun yetarlicha kattaroq bo'lishi darkor.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada kutish strategiyasining mazmuni.
2. Kutish strategiyasida pauzaning roli. Katta va kichik pauzalar qancha soniyani tashkil qiladi?
3. Sinxron tarjimada tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolish prinsiplari qanday?

13-MA'RUZA

Stolling – vaqtdan yutish strategiyasi xususiyatlari, uning afzallik va kamchiliklari

“Stolling – bu tarjima materialini yetkazishni sekinlashtirish yoki o'ta uzayib ketgan pauzani to'ldirish uchun hech qanday yangilikni o'zida aks etmagan tematik ma'lumotni takrorlash yo'li bilan vaqtdan yutishga urinishdir”, - deb ta'rif bergan Jil (1995:130). Stolling tarjimashunoslik adabiyotlarida ko'pincha asliyat tilida gapdagi fe'lining oxirgi o'ringa joylashtirishi bilan bog'liq muammolarni hal etish texnikasi sifatida ta'riflanadi. Kutish strategiyasidan farqli o'laroq mazkur strategiyani qo'llashda sinxron tarjimon pauza ushlamaydi, balki uni tematik ma'lumotlar bilan to'ldiradi, bir qator vaziyatlarda qaytariqlardan ham qochmaydi. Kutish strategiyasidagi singari vazifa kengroq kontekstga ega bo'lish uchun vaqtdan yutishdir. Ko'pincha stolling kutish strategiyasini qo'llashning imkoni bo'lmagan vaziyatlarda ishlatiladi. Ya'ni tarjimada pauza juda uzoq bo'lib qolsa, notiqning “yo'l-yo'rig'i” asliyatdagi bir necha ma'noli qismlardan so'ng keladi.

Asliyat tilidagi matn parchasi tarjimasining o'xshash strategiyani qo'llagan holda tahlilini keltiramiz.

Let me just explain what is meant by the word “context”, which sometimes you might hear a banker using. The sort of project we are talking about today is principally a single project. And the alternative to this is corporate debt, i.e. where you are borrowing not for a specific project but in the context of the company as a whole (Price Waterhouse Conference, Moscow, 1996).

Bunday vaziyatda kutish strategiyasining qo'l kelishi amrimahol. *Context* va *corporate debt* o'rtasidagi vaqt oralig'i taxminan 15 soniyani tashkil qiladi. Bunday pauzaga yo'l qo'yilmaydi. Ustiga ustak notiqning ma'ruzasidagi ingliz tilidagi *context* tushunchasini o'zbek tiliga to'g'ri yetkazib berish imkonini beruvchi keng kontekstni qachon olishimizni bilmaymiz.

Kutish srategiyasini Stolling strategiyasi bilan birga ko'rib chiqish kerak. Stollingning kutish strategiyasidan farqi shundaki, u o'zicha hech qanday ma'noni olmagan tematik ma'lumotlarni qaytarish hisobiga ko'proq vaqtga ega bo'ladi. Stolling o'zining ustunlik va kamchiliklariga ega. Ustunliklaridan biri bu: ko'proq vaqtga ega bo'lish, kamchiligi qaytarishlar va tarjima matnining noqulayligidir. To'g'ri tarjima chiqarish uchun kerak bo'lgan strategiyani tanlashda quyidagilar xizmat qiladi: yordamchi so'zlar, tarjimonga bir zumda tushuna olish uchun yordam beradigan so'zlar va boshqalar.

SS (vaqtdan yutish strategiyasi) tarjimon yetarli darajada tematik ma'lumotga ega bo'lgan va matndagi mavhum bo'lakni shu ma'lumot bilan almashtira olishi mumkin bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, stolling ko'p hollarda giponimik va giperonimik munosabatlarga qurilgan semantik transformasiyalar bilan bog'langan. Ularning asosida bizga ma'lum semantik qonuniyat yotadi. Unga ko'ra biror bir ob'yektni ifodalash uchun torroq va konketroq mazmundagi til birliklari (giponimlar) va kengroq, mavhumroq mazmunga ega til birliklari (giperonimlar) ishlatilishi mumkin.

Giperonimik transformasiyaning ko'p uchraydigan motivlaridan biri bu o'zaro aloqaga kirishuvchi tarjimasi jarayonida farqlanmas mazmunga ega keng ma'noli so'z qoidaga.

Giperonimik transformasiya stollingning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan misolda inglizcha *context* tushunchasi juda keng ma'noga ega bo'lib, uni keng kontekstsiz tarjima qilib bo'lmaydi.

Let me just explain what is meant by the word (1) “context” (2), which sometimes you might hear a banker using.

Keling yana bir (1) tushunchaga to'xtalsak, (2) qaysiki ba'zida bank doiralarida qo'llaniluvchi.

1 – tarjimon tomonidan muammoning aniqlashtirilishi. Ingliz tilidagi *context* tushunchasining tarjimasi ingliz tilidagi tor kontekst hamda identifikasiyalanmaydigan ma’nosiga ega bo’lmish mazkur tushunchaning keng ma’noliligi bilan mushkullashgan.

2 – “vaqtdan yutish” uchun stollingning birinchi bosqichi sifatida sinxrong tarjimon tomonidan qo’rlangan giperonimik transformasiya. Ingliz tilidagi “context” kontekstga ko’ra o’zbek tilidagi “tushuncha” qaraganda torroq ma’noga ega.

The sort of project (3) we are talking about today is principally a single project.

Hozur biz so’zlayotgan loyihaviy moliyalashtirish (3) bu yagona loyihaning moliyalashtirilishidir.

3 – tema-egali giperonimik almashtirish. Ingliz tilidagi the sort of project o’zbek tilida loyihaviy moliyalashtirish variant bilan tarjima qilinishi yuqoridagi kontekst tufaylidir. Mazkur mavzuda ma’ruzaning o’n minutlik segmentidan so’ng bu yerda xatolokka yo’l qo’yish mumkin emas.

And the alternative to this is corporate debt, (4)

Loyihaviy moliyalashtirishga al’ternativa bu korporativ qarzdir, (4)

4 – stollingni amalga oshirish. Sinxron tarjimon notiqdan *context* tushunchasining rasshifrovkasini oladi.

i.e. where you are borrowing not for a specific project but in the context of the company as a whole. (5)

bunda kredit muayyan bir loyiha ostida emas, balki butun bir kompaniya uchun olinadi. Demak, (5) korporativ qarz.

5 – mazkur segmentning xotimasida tarjimonlik xulosasi yasaladi. Aslida, tarjima tilidagi “Demak, korporativ qarz” frazasi ingliz tilidagi mulohazaning eng boshida kelgan “*context*” so’zining tarjimasidan boshqa narsa emas. Tarjimonlik xulosasini yasash xabar qabul qiluvchini ingliz tilidagi *korporativ zayom* yoki

context tushunchasining asliyat tilida ilk marotaba jaranglagan boshlang'ich xolatga qaytarish uchun zarurdir.

Shu tariqa, sinxron tarjimada joiz strategiya sifatida stollingni qo'llash uchun sinxron tarjimonning izchil harakatlarini 5 ta ketma-ket bosqichda ko'rsatish mumkin:

1. Tarjimon tomonidan muammoning identifikasiyalashishi.
2. Giperonimik transformatsiya – tarjimon tomonidan tor kontekst asliyat tilidagi muayyan bir tushunchaning to'g'ri tarjima qilishga imkon bermagan xolatida umumiyroq bo'lgan tushunchaning tanlanishi.
3. Tema-egali giponimik almashtirish yoki tema-egali direma.
4. Stollingni amalga oshirish.
5. Tarjimachilik xulosa yasalishi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada stolling – vaqtdan yutish strategiyasining mazmuni.
2. Stolling strategiyasining afzallik va kamchiliklari nimada?
3. Sinxron tarjimada giponomik va giperonimik transformasiyalar nima?

14-MA'RUZA

Sinxron tarjimada ehtimollikni bashorat qilish modeli

Ehtimoliy bashorat qilish strategiyasi asliyat tili chiqishida paydo bo'luvchi matnning lingvistik tarkibiy qismlarining tarjimon tomonidan ertaroq aniqlanishidan iborat. Bir qator vaziyatlarda sinxron tarjimon diskursda paydo bo'lguniga qadar asliyat matnida qaysi fe'l bo'lishini aniqlab olishi mumkin. Ehtimoliy bashorat strategiyasi tarjima adabiyotlarida asosan fe'l so'nggida turuvchi konstruksiyalar yoki tayanch ot tushunchasi ma'noli guruhnin so'nggida joylashgan vaziyatlar uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan strategiya sifatida ta'riflanadi. (Cetton 1997:53).

Ilk marotaba “ehtimoliy bashorat” atamasini I.M.Feygenberg kiritadi. U ehtimoliy bashorat qilishga quyidagicha ta’rif beradi:

“A vaziyatining yuzaga kelishi organizm tizimining reaksiyaga tayyorgarligi uchun signal bo’lib xizmat qiladi. (Qanchalik bashorat noaniq bo’lsa) o’tmishda A ning ketidan ko’pincha bir xilda yuruvchi voqea-hodisalarning doirasi qancha keng bo’lsa, keng fiziologik tizim doirasi shunchalik A signaliga javoban ko’proq safarbar bo’ladi. O’tmish tajribalarning ehtimoliy strukturasiga tayangan kelgusi vaziyatga mo’ljallangan harakatlarni bunday oldindan sozlash ehtimoliy bashorat deb atalishi mumkin”. (Chernov 1978:63)

G.V.Chernovning fikriga ko’ra, Ehtimoliy bashorat mexanizmi asosiysi va eng muhimida sinxron tarjimani ta’minlovchi psixolingvistik mexanizm hisoblanadi. Fiziolog va psixologlarning bir qator ishlarida shu narsa ko’rsatilganki, ehtimoliy bashorat qilish strategiyasi kishi psixik faoliyatining ko’p qirralari ostida, shuningdek nutq faoliyati asosida yotadi. Sinxronist tomonidan asliyatdagi nutqning qabul qilinishi jarayonida uning miyasi muallifning kommunikativ niyatini yakunlashga turli variantlarni ishlab chiqadi.

Sinxron tarjima kommunikantlar o’rtasidagi muloqot jarayonida til vositachisi – sinxron tarjimon yordamida amalga oshiriladi. Ehtimoliy bashorat qilish modelini yaratish uchun G.V.Chernov sinxron tarjimani yana jarayon nuqtai nazaridan ko’rib chiqadi. Sinxron tarjima modellari doirasida invariant, ekvivalent, matn tarjimasi tadqiqotida nutq asarlarini sifatida ko’rib chiqish kabi bir qator tushuncha – tarjimonlik universalialari ishlab chiqiladi.

Binobarin, sinxron tarjima qisqa muddat ichida sodir bo’luvchi asliyat tilidagi matnni tarjima tilidagi matnga shakllantirish jarayonidir. Sinxron tarjima – vaqtning tanqisligi va qayta ishlanuvchi ma’lumot hajmining qat’iy chegaralanganligi sharoitida amalga oshiriluvchi ikki tilli kommunikativ faoliyatning murakkab turidir. Bunda ma’lumot predmeti va mahsuli qayta ishlangan nutq xabarining semantic-ma’noli strukturasini hisoblanadi. A.D.Shveyser

tarjimaning dinamik modelini ishlab chiqadi. Bu bilan u sinxron tarjima paytida sodir bo'luvchi jarayonlar butun bir kishi nutq faoliyati uchun xos bo'ladi. "Qaysidir ma'noda bu jarayon umuman olganda nutq faoliyati qonuniyatlari bilan xarakterlanadi". (Shveyser 1973:60) Sinxron tarjima vakuumda amalga oshirilmaydi, uning jarayoni oddiy muloqot jarayonidan shunisi bilan farq qiladiki, unda til vositachisi ishtirok etadi, shuning bilan birga ikki xolatning ham maqsadi aynan shu birgina – tomonlar o'rtasidagi kommunikasiyani amalga oshirish bo'lib qoladi. G.V. Chernov ehtimoli bashorat qilishni kommunikativ vaziyat kontekstida ko'rib chiqadi. Bunda kommunikativ vaziyat – bu kommunikatsiyani amalga oshirish, xabarni ochib ko'rsatishdagi g'ayrilisoniy (ekstalingvistik) sharoitlarning bir qancha omillar to'plami va ularning o'zaro munosabatidir. Kommunikativ vaziyatda sinxron tarjimada quyidagi savollarga javob berishda namoyon bo'luvchi unsurlar yoki omillar to'plamini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kim? 2) nima bilan? 3) qaysi mavzuda? 4) kim oldida? 5) kimga? 6) qayerda? 7) qachon? 8) qaysi maqsadda? 9) nima uchun? Va haqiqatdan ham, sinxron tarjimonga sinxron tarjimani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mazkur savollarga javobni bilishi zarur, chunki har qanday sinxron tarjima situativ shartlangan.

Sinxron tarjimaning kommunikativ vaziyati strukturasi – bu (notiqning) xabar manbasi, xabar mavzusi (tematik doiralar), xabarni qabul qiluvchilar (auditoriya, forum ishtirokchilari tarkibi), joy, vaqt, chiqish maqsadi va uning motivini ta'riflovchi omillar to'plamidir.

Sinxron tarjimaning yozma tarjimadan farqi shundan iboratki, "Sinxron tarjimaning maqsadi – kommunikatsiya faoliyatini amalga oshirish paytida mazkur faoliyatning turli tilli ishtirokchilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi". Shu nuqtai nazardan sinxron tarjima psixologlarni nihoyatda qiziqtiradi.

Yuqorida aytilganidek, ehtimoliy bashorat qilish kishining psixik faoliyatining ko'p qirralari, shuningdek nutq faoliyati asosida yotadi. Ehtimoliy bashorat qilish mohiyati shundan iboratki, tarjimon miyasi asliyat nutqining eshitib

qabul qilinishi jarayonida muallif niyatining u yoki bu ma'noli yohud verbal rivojlanish yoki yakunlanishi haqidagi gipoteza ilgari suriladi. Ehtimoliy bashorat qilish til va nutqning ortiqchaligiga asoslanadi. R.G.Piotrovskiy rahbarligidagi statistika guruhining eksperimental tajribasiga ko'ra rivojlangan tildagi ortiqchalilik 70 va 85% orasida bo'ladi. Rus tilidagi ortiqchaliligi 72,1-83,6 %, ingliz tilida 71,9-84,5 % chegarasida bo'ladi.

Amaliyotda sinxron tarjimon bog'langan xabarning ortiqchiligi bilan ish ko'radi. Bunda bog'langanlik temaning birligi va so'zlovchining kommunikativ niyatiga tayanadi. Ortiqchalilik qanchalik yuqori bo'lsa, so'zlovchining kommunikativ niyati va va temaning birligi o'rtasida munosabat shunchalik jips bo'ladi, Shunday ekan chiqishning mazmuniga ko'ra sinxronist oldindan aniqlab olishi mumkin bo'lgan leksik birliklarning qo'llanilish ehtimoli shunchalik katta bo'ladi. She'riy asarlarda ortiqchilik darajasi ancha past, har bir simvol uchun ma'lumot miqdori esa yuqori. Bundan ko'rinib turibdiki, chiqishda she'riy asar ham ko'rsatilsa, she'riy asarni maqbul sinxron tarjima qilishning ehtimoli oz. Mustasno agarda sinxron tarjimon she'rni avvaldan yoddan bilib, uni hech qiyinchiliksiz tsitata keltira olsa.

Tadqiqotchilar xabardagi ortiqchilikning quyidagi sabablarini ko'rsatadilar:

1) Nutq oqimida ma'lum bir elementlarning qaytarilishi;

2) Xabarning lingvistik tarkibiy qismlarining o'zaro bir-biriga to'beligi. Xabar tarkibiy qismlari (tovushlar, so'zlar, so'z birikmalari, jumlar va ma'nolar)ning izchilligi haqiqati ma'lum bir qoidalar asosida shakllanadi. Va bu ularni o'zaro to'be qilib qo'yadi, natijada xabar manbasi qaytariladi.

Sinxron tarjima bo'yicha qilingan ishlarning aksariyat mualliflari ehtimoliy bashorat qilishning 2 tipini farqlaydilar:

a) "lingvistik" ("lisoniy") yoki "sintaktik" bashorat qilish, bu diskursni davom ettirish manbasi bashorat qilishga asoslanadi, so'z birikmalari va turg'un iboralarining standart to'plamidan, ya'ni *undertake an obligation to ...leave without*

a leg to stand on... kabilardan tortib to funksional soʻz va bogʻlovchilargacha bilishga asoslanadi.

b) “ekstralingvistik” (“gʻayrilisoniy”) bashorat qilish, bu tashqi bilimlar, sinxron tarjimon ega boʻlmish ekstralingvistik maʼlumotlar yoki alohida kognitiv komponentlarga asoslanadi.

Lederer ehtimoliy bashorat qilishni amalga oshirishga imkon beruvchi 3 omil mavjudligini koʻrsatadi (1981:248-249):

- a) tarjimon tomonidan til strukturasi oldindan tanish;
- b) soʻzlarni qabul qilishni deyarli keraksiz hodisaga aylantiruvchi fikrlarning mantiqiy izchilligi;
- c) tarjimon tomonidan ayni paytga qadar tinglangan, faqatgina boshqa soʻzlar bilan ifodalangan maʼruzachining mantiqiy fikrlar tizmasi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada ehtimoliy bashorat qilish strategiyasining mazmuni.
2. Ehtimoliy bashorat qilish strategiyasining afzallik va kamchiliklari nimada?
3. Tildagi ortiqchilikning sinxron tarjimon uchun ijobiy jihatlari nimada?
4. Tildagi ortiqchilik rivojlangan tillarda necha foizni tashkil qiladi?

15-MAʼRUZA

Sinxron tarjima faoliyatida ehtimoliy bashorat qilishda “lingvistik” yoki “sintaktik” bashorat

Lingvistik bashorat qilish koʻp maʼnoda soʻzlarning birga bogʻlana olish masalalariga aloqador. V.G. Gak, Yu.D. Apresyan va boshqa tadqiqotchilarning bir qator ishlarida maʼno butunlik va ajralmas unsur sifatida emas, balki kichik-kichik elementar boʻlaklar – semalardan tashkil topgan murakkab yasalmish sifatida qaraladi. Sinxron tarjimon kirishda soʻzni koʻpgina uch darajali murakkab iyerarxik strukturani oʻzida aks etuvchi semantik tarkiblardan oladi: eng kichik maʼnoli birlik sifatida ikki soʻzning birlashishining lingvistik ehtimoliyligi darajasi;

gapning ichidagi ma'noli aloqanining ehtimoliyligi darajasi; butun bir xabardagi predikativ munosabatning ehtimoliyligi darajasi.

Bog'lana olishlik nazariyasiga ko'ra bog'lana olmaydigan so'zlarning tarjimasi bog'lana oladigan so'zlarga qaraganda mushkulroq bo'ladi. Bu ko'pgina tadqiqotlarning natijalari bilan tasdiqlanadi. Sinxron tarjimada bashorat qilish uchun tayanch unsurlarning mavjud bo'lmaslik xolatida adashishlar, xatoliklar va kuchli buzilishlar yuzaga keladi. Tarjimon shipshirilgan gipoteza bo'yicha ishlashi mumkin bo'lib, bunda uning fikr-mulohazaning real rivojlanishi yoki yakunlanishidan farqini sezmasligi mumkin.

Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, sinxron tarjimon notiqni tinglab turib ayrim bir tayanch keskin nuqtalarga tayanib keyingi so'zning paydo bo'lishi ehtimolliligi gipotezasini tasdiqlaydi. Tarjimon sinxronist uchun o'zining gipotezasiga amal qilishi o'zining nazariy ildizlariga ko'ra generativ grammatika – so'zlovchii tomonidan intuitiv ravishda tushunilib jumalarning lingvistik qonuniyatlari bo'yicha yaratish nazariyasini ishlab chiqqan N. Xomskiyning idealiga yaqindir.

V.G. Gak so'z birikmalari semantikasida 3 munosabatni ajratib ko'rsatadi:

- 1) semantik muvofiqlik (kommunikativ barqarorlikka yordam beruvchi ifoda vositalarining ortiqligi);
- 2) nomuvofiqlik (semantik tejash hodisasi; *ilon inga yaqinlashib kelmoqda – sudralmoqda* ning o'rniga);
- 3) muvofiq emaslik.

AQSHning Narkologiya milliy ilmiy-tadqiqot instituti (NIDA National Institute on Drug Abuse)dan bo'lmish ma'ruzachi tomonidan aytilgan “We realized that John had a monkey on his back” jumlasini Butunjahon sog'iqni saqlash tashkiloti sinxronisti tomonidan juda katta ehtimollilik bilan bashorat qilingan. Tarjima tiliga tarjima asliyat tilida matnning yakunlanishidagi o'sha davriy doira ichida amalga oshirilgan. Tarjimada bu “Jon geroinga o'tirib qolganligini

angladik” tarzida o’z ifodasini topgan. Haqiqatdan ham amerika “drug culture” (geroin madaniyati)da “to have a monkey on one’s back” idiomasi geroin qabul qilishga tobelikni anglatar ekan. Ushbu holatda ehtimoliy bashorat qilishning ikki turi – lingvistik va ekstralingvistik bashorat qilish xolatlari mavjud. Bir tomondan biz V.G. Gakning modeli bo’yicha semantik muvofiqlik bilan ish ko’ramiz. Asliyat matnida bir necha semantik tarkibiy qismli turg’un ibora bor: umuman muammoning mavjudlik semasi (monkey on one’s back) va geroin to’beligi bilan aloqador muammo semasi. Birinchi sema lug’atlarda o’z aksini topgan:

monkey on one’s back *n. phr., informal* An unsolved or nagging problem. “My math course is a real monkey on my back”, Jack complained. Compare ALBATROS AROUND ONE’S NECK, MILLSTONE AROUND ONE’S NECK. (Barron’s Dictionary of American Idioms).

Ikkinchi sema tarjimasidan undan oldingi tajribaga asoslangan.

Shunday qilib jumlaning semantikasi va strukturasiga binoan sinxronist uning keyinchalik rivojlanishini va mumkin bo’lgan yakunini bashorat qilishi mumkin.

Lingvistik bashorat qilishda ko’p xollarda bir qator so’zlarning muvofiqligi ehtimoliyligi shunchalik katta bo’lishi mumkinki, sinxron tarjimon mulohaza strukturasini yakunlashga deyarli yuz foizli prognoz berishi mumkin. Bunda xatoga yo’l qo’yish foizi minimal darajada. Bu kategoriyaga avvalambor turg’un ibora va idiomalar kiradi.

Ma’ruzachi: Ladies andmmmm (coughing – yo’talish) ... gentlemen...

Tarjima: Xonimlar va janoblar... (Tarjima asliyat tilidagi mulohazadan oldin yakunlandi).

Bu xolda “Ladies” so’zi bilan boshlangan jumla nihoyasini bashorat qilish hech qanday qiyinchilik tug’dirmadi. Idioma yoki maqollarning nihoyasini ham bashorat qilish katta muammo emas, agar, albatta, notiq o’zining chiqishida

turg'un iboralaraning dekompozitsiyasi (kompozitsiyaning yo'qolishi, pasayishi) singari usullardan foydalanmasa.

Aksariyat hollarda sinxron tarjimon o'z gipotezasiga tayanib to'g'ri qaror qabul qilganlar. Ma'ruzachining ma'noli guruhi yakunlanguniga qadar ko'p sinxronistlar uni oldinroq yakunlab qo'yishga muvaffaq bo'lganlar. Va bu ehtimoliy bashorat qilish strategiyasining sinxron tarjimon uchun juda samarali qurol bo'lib xizmat qilishi mumkinligini isbotlaydi.

Mavzuga xulosa o'rnida quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) Lingvistik bashorat qilish strategiyasidan foydalanish uchun matnda tayanch birlik, unsurlarning mavjud bo'lishi shart.
- 2) Tayanch so'z va tushunchalarning mavjud bo'lishida lingvistik bashorat qilish sinxron tarjimonga qo'yilgan vazifalarni tezda hal etish va vaqtdan yutish imkonini beruvchi samarador qurolga aylanishi mumkin.
- 3) Tayanch so'zlar mavjud bo'lmagan xolatlarda sinxron tarjimada yanglishishlar, xatoliklar va xatto tarjimaning shak-shubhasiz noto'g'ri variantlari yuzaga kelishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Lingvistik bashorat qilishda asosan qanday unsurlar katta ahamiyat kasb etadi?
2. V.G. Gak so'z birikmalari semantikasida necha xil munosabatni ajratib ko'rsatadi?
3. Generativ grammatika nima?

16-MA'RUZA

Sinxron tarjima faoliyatida ehtimoliy bashorat qilishda

“ekstralingvistik” bashorat

Ekstralingvistik bashorat sinxron tarjimonning ko'rgazmali-tematik oriyentatsiyasi, ya'ni sinxron tarjimon matnni tarjima tilida adekvat yaratish uchun ega bo'lishi lozim bo'lgan ko'rgazmali bilimlar bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi kunda insoniyatni o'rab turgan bilim va ma'lumotlar ummonidagi hech bir soha mutaxassisiga aylanishga qodir bo'lmay va tarjimani amalga oshirish uchun bunga extiyoj sezmagani xolda ham shunday bo'lsa-da sinxronist fanning asoslarini egallashi lozim.

Gap shundaki, so'zlarning qabul qilinishini deyarli keraksiz hodisaga aylantiruvchi fikrlarning mantiqiy izchilligi faqat sinxronist tarjima predmeti haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lgandagina imkoniy bo'ladi. Shunda u bunday mantiqiy zanjirni bashorat qilish kuchiga ega bo'ladi. Va aksincha, predmet haqidagi bilimlarini mavjud bo'lmasligi tarjimonning so'zlarni asliyat tilidagi so'zlarning o'rniga tarjima tiliga qo'yib chiqishni boshlashiga olib keladi.

Sinxron tarjimonlarning ko'rgazmali-tematik tayyorgarligini hisobga olgan holda ekstralingvistik bashorat qilishning bir nechta misollarini ko'rib chiqamiz.

Ma'ruzachi: One more word of caution. When you use fingersticks use gloves that are powder-free. ("Lead and Children's Health" / "Qo'rg'oshin va bolalar salomatligi" konferensiyasi).

Tarjima: Yana bir e'tiborli jihat. Barmoqdan qon olishda tarkibida tal'k bo'lmaydigan qo'lqoplardan foydalaning.

Yuqorida aytilganidek, sinxron tarjimon mulohaza diskursi qay yo'sinda qurilishiga qarab butun bir strategiyalar to'plamidan foydalanadi. Mazkur segmentni uni ma'noli guruhlariga bo'lib batafsilroq tahlil qilib chiqamiz:

Speaker: 1./One more word of caution./ 2./When you use fingerstick/ use...

Tarjima: (Kutish strategiyasi, tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishi – 1 ma'noli guruh) 1. /Yana bir e'tiborli jihat./

2. / Barmoqdan qon olishda/

(ekstralingvistik bashorat qilish; tarjimon ikkinchi ma'noli guruhni ma'ruzachi bilan deyarli bir vaqtda yakunlaydi)

3. /...use gloves (ehtimoliy bashorat) that are powder-free./

3. / qo'lqoplardan foydalaning, qaysiki tarkibida tal'k bo'lmagan./

Mazkur segment tahlili sinxron tarjimonning mazkur xolatda tarjimada strategiyalarning tanlanishini belgilab beruvchi ekstralingvistik omillar imkoniyatidan foydalanib ehtimoliy bashorat strategiyasidan samarali foydalanishi mumkin. Tarjima paytida tarjimonning ma'ruzachidan ortda qolishining birinchi ma'noli guruhi 1 ma'noli guruhni tashkil qiladi. Ma'lum bir ma'noda bu yerda kutish strategiyasi qo'llaniladi. Bu ingliz tilidagi "one more word of caution" bilan ta'kidlanadi. Tarjima tilidagi tarjima mazkur ma'noli guruhni oxirigacha tinglab olishdan so'nggina boshlanadi. Bir vaqtning o'zida giperonimik transformatsiya yuzaga keladi. "Caution" so'zi tarjimada "e'tiborli jihat" tarzida namoyon bo'ladi. Asliyatdagi ingliz tilidagi variantda ikkinchi ma'noli guruh tarjimasida va tarjima jumlası deyarli bir vaqtning o'zida tugallanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimon ma'ruzachining mazkur qo'shma guruhda nima nazarda tutilganligini oldindan payqagan. Uchinchi ma'noli guruhning tarjimasida tarjima tilidagi variant vaqtga ko'ra asliyatdan ilgariroq, aslida ma'ruzachining "gloves" so'zini aytishi bilanoq yakunlanadi. Yana shuningdek, ingliz tili variantida tarjima tilida qo'llangan "talcum" so'zi mavjud emas. Bu tarjimonning ma'ruzachi o'z fikrini yakunlashini oldindan payqaganligini bildiradi.

Mazkur xolda ehtimoliy bashorat qilish strategiyasining manbalarini ko'rib chiqamiz:

1. Tor kontekst. "use fingerstick" so'z birikmasini tibbiyotshunoslik tematikasi "barmoqdan qon olish" deb tarjima qilish imkonini beradi.

2. Fikrlarning mantiqiy izchilligi. Ma'ruzachi "use fingersticks", "use gloves"... so'z birikmalarini qo'llaganida tarjimonning ehtimoliy bashorat qilishda aslida faqat ikki tanlovi bor: ma'ruzachining fikrini asliyatdagi variantni oxirigacha tinglab bo'lmasdan "tarkibida tal'k bo'lgan qo'lqoplar" yoki "tarkibida tal'k bo'lmagan qo'lqoplar" deb yakunlashi mumkin bo'lgan. Bu xolatda ikkinchi "tarkibida tal'k bo'lmagan qo'lqoplar" varianti tanlangan.

3. Tarjimon tomonidan ayni paytga qadar tinglangan tarjimaning ma'ruzachining mantiqiy zanjir yoki fikrlari. Bunda mazkur "tarkibida tal'k bo'lmagan qo'lqoplar" tushunchasi o'sha so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi mumkin, asliyat tilida boshqa grammatik va leksik konstruksiyalar bilan ifodalangan bo'lishi ham mumkin.

4. Tarjimonning asos bilimlari, bu vaziyatda tibbiyotshunoslik bilimlari barmoqdan qon olishda tarkibida tal'k moddasi bo'lmagan qo'lqoplarning ishlatilishi ko'zda tutiladi.

Sinxronistning idroki bilan ehtimoliy bashorat qilishning imkoniyligi va ayrim tayanch nuqtalarda verbal xabarning rivojlanishida keyingi vaziyatni oldindan payqash tildagi va nutqdagi ortiqlikka asoslanadi. Sinxron tarjimada ortiqlilikning zaruriy darajasi avvalambor aloqachi xabarning yuqori semantik ortiqliligi bilan ta'minlanadi. Kam ortiqli xabarlar, masalan, she'riy yoki badiiy matn sinxron tarjimaning ta'siriga yomon uchraydi. Bunda ortiqlilikning ikki qirrası mavjud:

- 1) Qaytariluvchanlik;
- 2) Xabar komponentlarining o'zaro aloqasi.

Bular alohida mulohazalarning semantikasida, shuningdek yaxlit bir aloqachi xabarning kontekstida aniq kuzatiladi.

Ortiqlilikning yuqori darajasi imlikatsiya tushunchasi yoki sinxron tarjimonning til bilimlari va sinxron tarjimaning kommunikativ vaziyati omillari asosida tushgan xabar qismidan chiqarga xulosalarga bog'liq.

Agar sinxron tarjimon tomonidan qurilgan gipotetik model' asliyat tiliga muvofiq kelsa, unda tarjima mos va muqobil bo'ladi. Agar gipotetik model real vaziyatga muvofiq kelmasa, tarjima tiliga tarjima variant asliyatga muqobillikdan ancha uzoq bo'lishi mumkin. Gipotetik model qurilishi bilan bog'liq yana bir muhim masala shunga taqaladiki, mazkur model tog'ri qurilsa sinxron tarjimada yakuniy qarorni qabul qilish uchun ko'proq vaqt qoladi.

Robin Setton ehtimoliy bashoratni ikki tipga bo'ladi: mantiqiy (deduktiv) va tematik. Shunisi ravshanki, tarjima jarayonida sinxronist bayon etish diskursiv strukturasini rivojlantiruvchi makrokontekstni ushlab turishi lozim bo'ladi. Tarjimon mulohazaning mantiqiy dalilga asoslangan deduksiya asosida xulosa yasaydi. Bu xolda sinxronist ma'ruzachining biror bir argument xulosasini oldindan, ya'ni ma'ruzachining o'zi yakunni yasagunga qadar bashorat qilishi mumkin bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Ekstralingvistik bashorat qilishda qanday bilimlarga zaruriylik tug'iladi?
2. Robin Setton ehtimoliy bashoratni nechta tipga bo'ladi? Ularning mazmuni nimada?
3. Sinxron tarjimonning ko'rgazmali-tematik tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?

17-MA'RUZA

Gapning semantik-ma'noviy strukturasining qabul qilinishi

Qabul qilinadigan mulohazaning semantik-ma'noviy qirralarining batafsil va konkret tahliliga murojaat qilamiz. Umuman olganda Yu.D. Aspersyanning "semantik jihatdan bog'langan matnni bog'lanmaganidan farqlash qobiliyati" semantik tavsiflarning yagona tilini ishlab chiqish zaruriyatining tug'ilishiga olib keladi degan fikrga qo'shilish mumkin. Yoki "har bir murakkab mazmun soddaroq mazmunli kombinatsiya ko'rinishida ifodalanishi kerak. Bu har bir sodda ma'nolar doim bir xil nomlanishi kerak: agar xuddi o'sha sodda ma'no u "A" yoki "B" murakkab birikmaga kirishiga qarab turlicha nomlansa AB birikmasida uning qaytarilish fakti bevosita o'rnatilgan bo'lishi mumkin".

Semantika bo'yicha so'nggi yillardagi ishlarda ularning mualliflari shunday xulosaga keladilarki, so'z ma'nosi tarkibidagi semantik komponentlar struktur jihatdan tartibga solingan va ma'no semantik komponentlarning "bog'lami"dan

tashkil topgan emas, balki konfiguratsiyaning ahamiyatini kasb etadi. Bu ma'no iyerarxik jihatdan strukturaga solinganligi va jumla strukturasidanda oz murakkab bo'lmagan ichki strukturaga egaligini anglatadi.

Zamonaviy tilda "tayyor" semantik tavsif tilining yo'qligi sinxronistga tushuvchi xabarlarining semantik tahlilini amalga oshirish imkonini beruvchi qandaydir vaqtincha tadbirni topishga majbur qiladi.

G.V.Chernovning fikriga ko'ra, "tayyor" qa'ridagi-semantik tilning mavjud emasligini bunday tavsifi sifatida "sodda gap"ning semantik-ma'noviy strukturalari sxemasi xizmat qilishi mumkin. Bunday sharoitlarda tavsifning yoki jumla strukturalari semantik-ma'noviy sxemalarining ichki ("qa'ridagi") sintaksisi katta ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ma'no loaqal ikki so'z semantik komponentlarining ma'nosi yoki konfiguratsiyasining "birga qo'shilishi"da o'rnatilar ekan, ma'noning elementar birliklarini "anglash" yoki yaratish jarayonini boshlang'ish ma'noga yangi sifat yoki xususiyat yoki belgini nisbat berish hodisasi deb qaraladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimon tomonidan gapning semantik-ma'noviy strukturasi qanday anglanadi?
2. Ichki semantik struktura nima?
3. Nazariyotchilar "tayyor" qa'ridagi-semantik til tavsifiga qanday fikrlar bildiradilar?

18-MA'RUZA

Sinxron tarjimada chiziqlilik strategiyasi faoliyati, uning ustunliklari

Sinxron tarjimada chiziqlilikni saqlash strategiyasi (sossionaj)ni bir qator muallif va nazariyotchilar tomonidan aslyat tili va tarjima tili o'rtasida ko'proq muqobillikka erishishga yo'naltirilgan tayanch strategiya sifatida qaraladi. Boshqa strategiyalar farqli sossionajda tarjima tilida gapning boshlamasi deyarli darhol,

ma'ruzachi bilan bir muddatda sodir bo'ladi. Kutish strategiyasidan farqli sinxron tarjimon deyarli hech qanday pauza qilmaydi, stolling bilan qiyoslaganda tarjima tiliga neytral, yuqoridagi kontekstdan olingan "tema – direma" tipidagi jumlar yoki sintagmalar talaffuz qilinmaydi. Jil' bunday taktikani sinxron tarjimon asliyat tili va tarjima tili o'rtasidagi katta sintaktik yoki stilistik tafovutlarga yo'liqqandagina o'rinli bo'ladi. Strukturalizmning praga maktabi atamasini qo'llab, mulohazani tema va remaga ajratish mumkin. Mulohazada ikki – sintaktik va kommunikativ struktura farqlanadi. Sintaktik strukturalarni bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklari hosil qiladilar. Kommunikativ strukturalarga kelsak, uning tabiati bir oz o'zgacharoq. Mulohazani yaratishda gap bo'laklari ishtirok etgan ma'noli parchalar ma'lum bir izchillikda xabarning boshlang'ich punkti (eski ma'lumot)dan fikrning harakati bilan mutanosiblikda uning ma'noli markazi (yangi ma'lumot)ga qadar joylashadi. Eski ma'lumotni ifodalovchi va minimal kommunikativ yukka ega ma'noli parcha tema hisoblanadi. Mulohazani amalga oshirish uchun ma'lumotni ifodalaydigan maksimal kommunikativ yukli parcha rema deb ataladi. (Chernyaxovskaya 1976:21). Mazkur komponentlar birgalikda mulohazaning kommunikativ strukturasini tashkil qiladi.

Mulohazaning kommunikativ strukturasida sinxron tarjimon remain alohida, kichik ikkinchi darajali qo'shimchalarga ajratadi. Sababi asosiy mazmunni asliyat tilidan tarjima tiliga tarjimon tomonidan mustaqil ajratilgan matn parchasi sifatida yetkazib berish uchundir. Boshqacha aytganda bunday strategiyani qo'llashda asliyat tilidagi murakkab gap tarjima tiliga bir qator sodda gaplar shakliga o'tkazilishi mumkin. Seleskovich va Lederer bu kabi o'zgartirishga misol keltiradilar. Bunda bunday jarayonni ma'noning quyi birliklari bilan ishlash deya tasvirlaydilar.

Since the UN was founded over thirty years ago...

Les-Nations-Unies ont ete foudées il y a plus de trente ans. Depuis cette époque...

The UN was founded over thirty years ago. Since then...

Yoki:

Speaker : From the time the general Assembly adopted Resolution 1514,

Interpreter: La Resolution 1514 a ete adoptee il y a 19 ans par l' Assemblée Generale

(Resolution 1514 was adopted 19 years ago by the General Assembly

19 years ago many countries including mine, have joined the ranks of free and independent nations

...Depuis cette epoque nombre de pays, dont le mien, ont accede a l' independance.

(Since that time many countries, including mine, have gained independence).

Sinxron tarjimada bu singari chiziqlilikni saqlash (sossionaj) yoki segmentasiyadan xabar beruvchi shakl BMTning xitoy tili tarjimonlarini tayyorlash uchun tavsiya qilinuvchi asosiy strategiya hisoblanadi. Bunday strategiya yana tarjimada “chiziqlilikni saqlash” strategiyasi deb ham nomlanadi hamda xitoy tilidan ingliz tiliga sinxron tarjimada asos hisoblanadi (Setton 1997:52). Tarjimonning vazifasi asosan aslyat matnini minimal darajada qayta qurib konkret tushunchani yetkazib berishdan iborat bo'ladi. Imkoni borida sinxron tarjimon ma'noli gurlardan aslyatdagi gapning asosiy strukturasiga amal qilishga harakat qiladi va shuning bilan birga yetkazilayotgan ma'lumotning bog'langanligi va mantiqliyini saqlab qoladi, murakkab gapni sodda tarkibiy qismlarga ajratadi.

Yuqorida aytilganidek, tarjima tilida chiziqlilikni saqlash sabablari sof uslubiy ma'noda bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda tarjima tilida stilistik sabablarga u yoki bu jumlaning aytib bo'lmaydi. Bu yerda biz tildagi tanlash muammosiga duch kelamiz. Bu tarjimonning kerakli o'zgartishlarni bajarishi kerakligiga olib keladi. Tildagi tanlash bilan bog'liq tafovutlar predmetli vaziyatni tasvirlashdagi diskretlik darajasida o'z aksini topadi. Gapning alohida ma'noli tarkibiy qismlarga bo'linishi mazkur muammoni yechishda mumkin bo'lgan yo'llarda bo'lishi mumkin. Uning

mohiyati asliyat matnidagi boshlang'ich mulohaza tarjima jarayonida tarjima tilida ikki yoki undan ziyod mulohazalarga bo'linib ketishidan iborat. Shuning bilan birga sossionajda tarjimon mazkur mulohazaning chiziqliligini ta'minlaydi.

MC: Let me introduce our next presenter. First of all, I would like to say that Mr. Gary Stanley is an international speaker.

Tarjima: Keyingi ma'ruzachi bilan tanishtirishga ijozat bering. Uning ismi Geri Stenli. Janob Stenli bu mavzudagi ma'ruzalar bilan ko'pgina mamlakatda ishtirok etgan.

Sinxron tarjimon duch kelgan muammo bu xolatda ingliz tilidagi "international speaker" iborasi bo'ldi. Bu vaziyatda tilimizning tanlash xususiyatidan kelib chiqib "xalqaro ma'ruzachi" deya olmaymiz. "Xalqaro darajadagi ma'ruzachi" deyish undan ham bema'ni bo'lardi.

Tarjimada chiziqlilikni saqlash yana boshqa bir sababga ko'ra ham muhim. Gap shundaki, insoniy tafakkur va xotiraning fiziologik xususiyatlari tufayli sinxron tarjimonga gohida uzun va chuqur kommunikativ-vaziyatli kontekstni o'z xotirasida saqlab turishi qiyin bo'ladi. Ingvening tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, sinxron tarjimon qanchalik uzun (yoki chuqur) KVKga yo'liqsa, tarjima tiliga butun bir ma'noli strukturani qayta qurib olgunga qadar boshlang'ich KVKni xotirada ushlab turish ehtimoli shunchalik oz bo'ladi. 1965 yil Ingve ishlaridan birida turli murakkablik darajasidagi gaplarning qabul qilinishi bo'yicha tadqiqotlarini nashr etadi. Bunda chuqur strukturalarni o'z ichiga olgan gaplarga, shuningdek antisedent egadan yetarlicha uzoq masofada joylashgan gaplarga ham urg'u beriladi.

Segmentasiyadan xabar beruvchi strategiya ma'ruzachi biror-bir latifa yoki konkret hodisani aytib berayotgan xollarda samarali bo'lishi ham mumkin. Bunda sinxron tarjimon mazkur segmentning ehtimoliy yakunini bashorat qilish uchun to'laonli vaziyat bilimiga ega bo'lmaydi. Bunday holda Seleskovich va

Ledererlarning ishlarida tasvirlanganidek, mulohaza remasini bir qancha mustaqil rematik bo'laklarga bo'lib tashlash mumkin.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sinxron tarjimada chiziqlilikni saqlash strategiyasining mohiyati nima?
2. Murakkab gapda segmentatsiya hodisasi nimalarga asoslanadi?
3. Tarjimada chiziqlilikni saqlash uchun sinxron tarjimonning vazifalari namalardan iborat?

MUNDARIJA

1. “Sinxron tarjima masalalari” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Sinxron tarjima haqida umumiy tushuncha.....	2
2. Sinxron tarjimaning rivojlanish tarixi. Sinxron tarjimadan foydalanish ko’lamining kengayishi va uning nazariy asoslari.....	4
3. Sinxron tarjima turlari. Sinxron tarjimaning o’ziga hos xususiyatlari, unga qo’yiladigan talablar.....	6
4. Tarjima kompetensiyasida konferensiya tarjimoni ega bo’lishi zarur bo’lgan sifatlar. Sinxron tarjimani baholash mezonlari.....	8
5. Sinxron tarjimaning qo’llanilish sohalari. Sinxron tarjima bozori.....	11
6. Xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimani tashkil etish sxemasi.....	13
7. Sinxron tarjimada tema va rema masalasi.....	16
8. Sinxron tarjima faoliyatida tayanch daraja so’zlari, ustkategoriya va ostkategoriya so’zlar bilan ishlash.....	18
9. Sinxron tarjima faoliyatining kommunikativ vaziyati.....	21
10. Sinxron tarjimada strategiya. Real sinxron tarjima vaziyatida turli strategiyalarning o’zaro munosabati.....	23
11. Sinxron tarjimada sinab ko’rish va xatolar strategiyasining o’ziga xos xususiyatlari.....	25
12. Sinxron tarjimada kutish strategiyasi xususiyatlari.....	28
13. Stolling – vaqtdan yutish strategiyasi xususiyatlari, uning afzallik va kamchiliklari.....	34
14. Sinxron tarjimada ehtimollilikni bashorat qilish modeli.....	37
15. Sinxron tarjima faoliyatida ehtimoliy bashorat qilishda “lingvistik” yoki “sintaktik” bashorat.....	41
16. Sinxron tarjima faoliyatida ehtimoliy bashorat qilishda “ekstralingvistik” bashorat.....	44

17. Gapning semantik-ma'noviy strukturasining qabul qilinishi.....48
18. Sinxron tarjimada chiziqlilik strategiyasi faoliyati, uning ustunliklari....49